

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**«MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI 4 –KURS
BITIRUVCHISI**

TO'RAXONOVA NOZMEHRNING

**“Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy
estetik va ma'naviy axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

**Maqsuda Norbosheva
MTM kafedrasi katta o'qituvchisi**

Termiz -2018

Termiz davlat universiteti Pedagogika fakul'teti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi To'rxonova Nozmehning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishiga *ilmiy rahbar*

XULOSASI

O'zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi - jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'yimoqda. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, olijanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo'lish, odob-axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so'zamollik, xushso'zlik, ilmi bo'lish kabi oliyanob hislatlar bilan boyitish inson kamolotining me'yori bo'lib kelgan, chunki komil insonning manaviyati yuksak bo'ladi, yuksak manaviyatga ega bo'lgan kishi esa o'z xalqining o'tmish tarixi, urf-odati, qadriyati va an'analari, madaniyatini chuqur biladi, unga rioya qiladi.

E'tirof etish joizki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida bolalarni estetik tarbiyasi o'ziga xos yo'nalish sifatida qabul qilingan.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-hissiy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o'rni katta. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida qaralayotganligi bugungi kunda ko'pchilik MTM tarbiyachi –pedagoglariga ham ayon emas.

Bitiruvchi To'rxonova Nozmehning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida qo'g'irchoq teatrining bola shaxsi shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida ilmiy, pedagogik-psixologik adabiyotlar asosida va tajriba sinov ishlari orqali o'rganilgan.

Bitiruvchi To'rxonova Nozmehning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida maktabgacha yoshda estetik tarbiya berish mazmuni va qo'g'irchoq teatri - estetik tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi masalasi ilmiy –nazariy jihatdan o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida esa, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-hissiy rivojlanishida qo'g'irchoq teatrining roli, qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi va ma'naviy- tarbiyaviy ahamiyati hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni yuzasidan materiallar to'plangan va ishda keltirilgan. BMining uchinchi bobi esa tajriba sinov ishlari va natijalar tahliliga o'rin berilgan.

Bitiruvchi To'rxonova Nozmehning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy -axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishidan kelgusida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachi-pedagoglari va bakalavrlar kerakli qo'llanma sifatida foydalanishlari bilan ish ahamiyatlidir.

To'rxonova Nozmehning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzuidagi ushbu bitiruv malakaviy ishi Nizom talablariga to'la javob berishini hisobga olib, ishni DAK himoyasiga tavsiya etaman .

Ilmiy rahbar:

**Maqsuda Norbosheva
MTM kafedrasi katta o'qituvchisi**

Termiz davlat universiteti Pedagogika fakul'teti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi To'rxonova Nozmehrning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-hissiy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o'rnini katta. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida qaralayotganligi bugungi kunda ko'pchilik MTM tarbiyachi –pedagoglariga ham ayon emas.

Bitiruvchi To'rxonova Nozmehrning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida qo'g'irchoq teatrining bola shaxsi shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida ilmiy, pedagogik-psixologik adabiyotlar asosida va tajriba sinov ishlari orqali o'rganilgan.

Bitiruvchi To'rxonova Nozmehrning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida maktabgacha yoshda estetik tarbiya berish mazmuni va qo'g'irchoq teatri - estetik tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi masalasi ilmiy –nazariy jihatdan o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida esa, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-hissiy rivojlanishida qo'g'irchoq teatrining roli, qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi va ma'naviy- tarbiyaviy ahamiyati hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni yuzasidan materiallar to'plangan va ishda keltirilgan. BMIning uchinchi bobi esa tajriba sinov ishlari va natijalar tahliliga o'rin berilgan.

Bitiruvchi To'rxonova Nozmehrning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy -axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishidan kelgusida maktabgacha ta'lim muasasasi tarbiyachi-pedagoglari va bakalavrlar kerakli qo'llanma sifatida foydalanishlari bilan ish ahamiyatlidir. To'rxonova Nozmehrning "Qo'g'irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma'naviy axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida" mavzuidagi ushbu bitiruv malakaviy ishi Nizom talablariga to'la javob berishini hisobga olib, ishni DAK himoyasiga tavsiya etaman .

Olmaxon Berdimumarodova:

**Surxondaryo viloyat
Qo'g'irchoq teatri direktori**

MUNDARIJA:

1-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING AHAMIYATI.

- 1.1. Maktabgacha yoshda estetik tarbiya berish mazmuni
- 1.2. Qo‘g‘irchoq teatri - estetik tarbiyaning eng muhim vositasi .

2-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-HISSIY RIVOJLANISHIDA QO‘G‘IRCHOQ TEATRINING ROLI.

- 2.1. Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lish tarixi va ma’naviy- tarbiyaviy ahamiyati
- 2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini qo‘g‘irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni

3-BOB.TAJRIBA SINOV ISHLARI VA NATIJALARI

- 3.1. Maktabgacha ta’lim amaliyotida “Qo‘g‘irchoq teatri” vositasidan foydalanish ahvoli va ahamiyatini o‘rganish.
- 3.2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mashg‘ulot ishlanmalari va mashg‘ulotlarni tashkil etish.
- 3.3. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish texnologiyasi va qo‘g‘irchoq yasash usullari

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:

O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-ma‘naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi - jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ymoqda.

“O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta‘limni oilada, maktabgacha ta‘lim muassasalarida oladi. MTMda ta‘lim-tarbiyani tarbiyachi-pedagoglar amalga oshiradi. Tarbiyachi-pedagoglar o‘z faoliyatlarida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish bilan birga ularning estetik tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 372-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta‘lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta‘limiga tayyorlash bo‘yicha Davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari vazifalari etib quyidagilar hisoblanadi: bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlash; bolalarning sog‘lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta‘minlash hamda unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otish; bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta‘limni tashkil etish; shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiyani amalga oshirish; bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarni maktabda o‘qishga

tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko‘maklashish; bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy sifat va salohiyatlarni uyg‘otish hamda rivojlantirish; bolalarni sog‘lom turmush tarzi bilan tanishtirish; bolalarda mustaqillik, mas‘uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish; bolalarga dunyo haqida tushunchalar berish va tasavvurlarini kengaytirish; bolalarning yoshi, individual, psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish. Ta‘lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta‘lim muassasasi, shubhasiz, ularning har qaysisiga xos, bolalarning tarbiyasi, ta‘limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo‘nalganligi bilan bog‘liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra maktabgacha ta‘lim muassasasi faoliyati boshqa ta‘lim muassasalarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, ta‘lim sifatini boshqarishning umumiy nazariy yo‘llarini maktabgacha ta‘lim amaliyotiga mexanik ravishda ko‘chirish mumkin emas. Ular maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatining o‘ziga xosliklariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirilishi kerak.

E’tirof etish joizki, ta‘lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta‘limda jadal o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatida bolalarni estetik tarbiyasi o‘ziga xos yo‘nalish sifatida qabul qilingan.

Darhaqiqat, kelajak poydevori bo‘lgan, har jihatdan mas‘uliyatli, ma‘naviy yetuk, axloqan pok, bir so‘z bilan aytganda jamiyat taraqqiyoti uchun munosib xissa qo‘sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero,

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta‘kidlaganidek, «...bugungi kunda farzandlarimizning ma‘naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa qolmoqda».¹

Aytish joizki, ta‘lim muassasalari oldida barkamol avlodni voyaga yetkazish masala dolzarb masala hisoblanadi. Bu kabi islohotlardan ko‘zda tutilgan maqsad – yosh avlodning tarbiyasiga atroflicha yondashish, turli yosh guruhlaridagi bolalarning

bilim doirasini kengaytirish, o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu jarayon jamiyatimizning ijtimoiy va ma’naviy rivoji borasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimining bir bo‘g‘ini sifatida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yuksak e’tibor berish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi. Mustaqilligimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlashda har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbiga ona Vatanga mehr-muhabbat, istiqloлга sadoqat, kelajakka ishonch tuyg‘ularini singdirish, dunyoqarashini kengaytirish, bir so‘z bilan aytganda, har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib voyaga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Biron-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi”³.

Ma’lumki, bolaga maktabgacha yoshida berilgan ta’lim – tarbiya uning butun hayoti davomida muhim o‘rin tutadi. Respublikamizning kundan-kunga jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallab borishi, rivojlangan davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida o‘zaro hamkorlikka erishishi, nafaqat ota-onalar, balki, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari zimmasiga bolani yoshiga munosib tarzda har tomonlama tarbiyalab borish zaruriyatini yuklamoqda.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini hisobga olsak, shu davrda ijtimoiy muhit va ta’lim tarbiya ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari paydo bo‘la boshlaydi. Ayni shu vazifani amalga oshirish esa, bizning mamlakatimizda milliy sharqona tarbiya poydevori hisoblangan oilada, xususan ota-onalar va shu bilan birga ta’lim muassasalari– maktabgacha va maktab ta’limi tarbiyachisi hamda pedagoglari zimmasidadir.

Bolalar fantaziyasi olami, ularning qiziqishi va xohishi qadar keng va chegarasizdir. Shuning uchun ertaklar azal-azaldan kishilardagi yaxshi sifatlarni kamol toptirib, go‘zallikni xis etish qobiliyatini o‘stiradi, vatan, el-yurt obodligini, osoyishtaligini ta‘minlash ishq bilan yashashga o‘rgatadi.

Ertaklarda xalq aql-zakovatining qudratli parvozi, xalqning orzu-istaklari, mingyillik donoligi, tajribasi majoziy timsollar zamiridagi mangu hayot muammolarini bilishga intilishini aks ettiradi. Inson bor ekan, ertak bilan o‘tib ulg‘ayadi, o‘zining qalb qo‘rini ertak bilan boyitadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy-hissiy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o‘rni katta. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma‘naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida qaralayotganligi bugungi kunda ko‘pchilik MTM tarbiyachi –pedagoglariga ham ayon emas.

Shu boisdan mazkur BMI da aynan qo‘g‘irchoq teatrining bola shaxsi shakllanishiga ta‘sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida ilmiy, pedagogik-psixologik adabiyotlar asosida va tajriba sinov ishlari orqali o‘rganishdan iboratdir. Shuningdek, masalaga oid tegishli tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: maktabgacha yoshdagi bolalar qo‘g‘irchoq teatrini o‘rganish.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Qo‘g‘irchoq teatrini maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma‘naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida o‘rganish.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:

- Qo‘g‘irchoq teatrini maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik va ma‘naviy ahloqiy tarbiyalash vositasi sifatida nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish;
- Maktabgacha ta‘lim muassasalarida “Qo‘g‘irchoq teatri” va undan foydalanish ahvolini o‘rganish;
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- Maktabgacha ta‘lim muassasalarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish texnologiyasi va qo‘g‘irchoq yasash usullarini to‘plash.

Bitiruv malakaviy ishi metodi: kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, o'yin.

Bitiruv malakaviy ishi obykti va bazasi: Termiz shahridagi 24-21-9-7-4 MTM va Uzun tumanidagi 1-MTM.

Bitiruv malakaviy ishi yangiligi: mazkur bitiruv malakaviy ishi maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari tomonidan ilgari tadqiqot ishi sifatida o'rganilmaganligi bilan yangilikdir.

Bitiruv malakaviy ishi ahamiyati: Maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga o'zbek xalq madaniy merosi – xalq og'zaki ijodi, hikoya va ertaklardagi bosh asosiy g'oyani singdirish, ularning qo'g'irchoq teatriga, san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va shu orqali ularda Vatanga muhabbat, o'tmish tariximizga hurmat, xalqqa sadoqat, do'stga vafo, ota-onaga g'amxo'rlik tuyg'ularini singdirish muhim vazifalardan biridir. Mazkur bitiruv malakaviy ishi aynan ana shu muhim vazifani bajarilishini ta'minlashi bilan ahamiyatlidir.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi: kirish, 3 bob, 7 band, xulosa va tavsiyalar, ilovalar qismidan iborat bo'lib, jami 70 betni tashkil etadi.

1-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING AHAMIYATI.

1.1. Maktabgacha yoshda estetik tarbiya berish mazmuni

Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi. Uning ob'ektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta'limdir.

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) - *bu bolalarga voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir*

Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish — komil insonning eng zarur fazilatidir. Estetik tarbiya – eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunukdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi.

Estetik tarbiya bugungi kunda shunisi bilan muhimki, did-farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda - har bir inson uchun hayotiy shioriga aylanib qolgan. Donolardan biri *go'zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisidir*, degan edi.

Darhaqiqat, odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakat, go'zal munosabatda va hayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko'rinadi. Xalqimiz «Kamtarlik ham husn» deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma'no bor. Estetik tarbiya orqali yoshlarda kamtarlik hislati tarkib topadi. Bu hislat kishilarning eng go'zal belgisidir. Salbiy xatti-harakatlardan nafratlana bilish tuyg'usini ham estetik tarbiyani paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli muhimdir. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagida Qimmatning xulq-atvori bolalar qalbida nafratni uyg'otadi. Zumradning tevarak-atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi qalblarda quvonchni paydo qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim yoshlar go'zallikni tor ma'noda tushunadilar. Ya'ni, chiroyni ko'pincha husn jamolda deb bilishadi. Bu bir tomonlama tushunchadir. Har tomonlama ma'noda esa chiroy husn-jamol, qalb go'zalligida, ma'noli so'zdir. Xalqimiz bejizga «Chiroy husnu jamolda emas, fazlu kamolda» deb aytmagan! San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va tassavvurni ham rivojlantiradi. Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqea'arni to'g'ri tushunish, olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Estetik taraqqiyot - shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir.

Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi.

SHaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Estetik ehtiyoj — kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi sub'ektiv omildir.

Estetik ehtiyoj go'zallik to'g'risidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga undaydi.

Estetik qiziqish shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga undaydi. Estetik qiziqish estetik ehtiyojni yuzaga keltiradi.

«Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjuddir. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning. ma'lum turlari bo'yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Uning natijasi fikrning paydo bo'lishida, uni amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va ta'surotlarini qo'ra bilishda, his-tuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi.

Estetika tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek estetik ongning paydo bo'lishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarni, ob'ektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biri bo'lgan san'atning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Pedagogika estetikaning «go'zallik hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi kishilar munosabatidagi go'zallikda qatnashtirish, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi. Go'zallik kishini olijanob qiladi, uning yuksak didli, poq yaxshi inson bo'lishiga xizmat qiladi. Go'zallik bilan uchrashish kishida estetik his, ruhiy hayajon, beg'apaz quvonch uyg'otadi.

Estetik hisda idrok etilavotgan voqelikka nisbatan xudbinlik ohangi, shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan g'arazli qarashlar bo'lmaydi. Ajdodlarimiz bu to'g'rida shunday yozadi: «Kishidagi go'zallik hosil qilgan sezgi, odam eng yaqin kishisi bilan uchrashganda paydo bo'ladigan porloq quvonchga o'xshaydi. Biz go'zallikni beqiyos sevamiz, undan eng yaqin kishimizni uchratganda quvongandek zavqlanib quvonamiz». Go'zallik insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yaratiladi va madaniy-tarixiy tajribaning bir qismini tashkil etadi. Uning mavjudligi, ob'ektivligi yosh avlodga estetik tajribani tizimli ravishda singdirish va shu orqali ularning estetik tomondan taraqqiy etishini ta'minlaydigan *estetik tarbiya* nazariyasining faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda tarbiya va ta'lim jamiyatning estetik madaniyatini o'zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

San'at o'zining hissiy ta'sir kuchi bilan kishiining faqat hissini emas, fikr va irodasini ham maftun etadi, tarbiyalovchi roli ham mana shunda namoyon bo'ladi, shuning uchun u *estetik tarbiyaning mazmuni va vositasi* hisoblanadi.

Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, mehnat va jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik undan zavqlanmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San'atning tarbiyaviy kuchi shundaki, u odamni hayotdagi voqealarni, hodisalarni chuqur his-hayajon bilan idrok etishga majbur etadi. Estetik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular bironta foydali ishni bajarayotib, biron kerakli narsani yasayotib o'zlarining kuch va imkoniyatlari o'sib borayotganini sezadilar. Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ia oladi va uni yaxshi, zo'r shavq-zavq bilan bajaradi.

Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida mustahkam bog'lanish bor. Kishining mustahkam cog'ligi, jismoniy kamolotisiz uning go'zalligini tasavvur etib bo'lmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, harakatlarni chiroyli bajarishi, musiqa ostida chiroyli harakatlar qilishi va hokazo lar shular jumlasiga kiradi.

Ko'pchilik pedagog va psixologlarning tadqiqot ishlari bolalarning ijodiy faoliyatlari, hissiyotlari, estetik tasavvurlarining o'ziga xos xususiyatini va ulardagi estetik tasavvur va hissiyotlarning qanday rivojlanishini ochib bergan. Bu tekshirishlar bolalardagi estetik tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirishni ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish keraq degan xulosaga olib keldi. Estetik tasavvurning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli - «ko'rinadigan» va «eshitiladigan» narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning ko'rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bo'lmay, balki uning ahamiyati muhimdir.

Estetik idrok qilishda esa eng muhimi - idrok qilayotgan narsaning obrazi, uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarini ko'ra bilish talab qilinadi.

SHuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni, kuzatuvchanlikning rivojlangan bo'lishini talab etadi. Kishi narsa va hodisalarga go'zallik mezoniga asoslangan holda, alohida qadr- qimmat bilan yondoshgandagina estetik kechinmalar paydo bo'ladi.

Estetik hislar fikrlash bilan bevosita bog'liqdir. Estetik kechinmalarda har doim xayol ishtirok etadi, busiz go'zallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi. O'yin, rasm chizish, ertaklarni eshitish xayolning ishlashini talab etadi. Dastlabki vaqtlarda xayol faoliyat jarayonida narsalar bilan ta'sir etish natijasida yuzaga keladi. Keyingi bosqichlarda esa, ijodiy faollikning tashqi shakllaridan sekin-asta fikrlashga o'tadi. Bola rasm chizganda yoki o'ynaganda obrazni tasvirlashdan yoki ifodalashdan oldin shu obrazni idealida yaratadi.

Badiiy asarlarni idrok qilganda ham xuddi shunga o'xshash voqea yuz beradiki, bolalar asardagi qahramonlarga xayolan qo'shilib, ularning xatti-harakatlarida o'z xayollari bilan qatnasha boshlaydilar. Demak,-

{ Estetik kechinmalar murakkab hodisa bo'lib, hissiyotlar,
xayol va fikrning faol ishlashini, o'z fikr va hissiyotlarini ifodalashga,
faoliyatga ehtiyoj tug'ilishi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. }

Estetik madaniyatni shakllantirish - bu borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon. U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadri yatlardan zavqlanishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga bu orqali bolalarda turmushning hamma tomonlaridagi go'zallik unsurlarini ilg'ab olish, xunuklik, didsizlikka qarshi kurashga harakat qilishni tarbiyalaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar.

SHaxsning estetik xususiyatlari tug'ma emas, ammo ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarni estetik idrok, tasavvur, tushunchalar, mulohazalar, qiziqishlar, his-tuyg'ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirish amalga oshiriladi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, xali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi.

Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas. shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi va hokazo.

O'rta guruhga kelganda bolalar estetik idrokinng rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Ammo shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Bu yoshdagi *bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar*, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladilar. Bolalarda go'zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa ular *qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni* tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga bemalol qo'shilib harakat qiladilar, ularda muayyan vaziyatda o'zini qanday tutishni aytib turadilar, o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she'rni nasrdan. badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy faoliyat va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va hokazo) bir-biridan ajrata boshlaydilar. Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda quyilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar o'yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o'ynlarida obrazlarning ifodali bo'lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar.

Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladilar. Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi. Bolalar badiiy asar qahramonlari xatti-harakatiga juda katta his-hayajon bilan munosabat bildiradilar, ammo asardagi qahramonlar xulqidagi yashirin sabablarni ular hali anglab yeta olmaydilar, bolalarda badiiy ijodkorlikning rivojlanishi davom etadi, ammo ularning fikrlari hali aniq, barqaror emasligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida jamoa bo'lib ishlash malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga molik masalalardan biridir.

Tayyorlov guruxlarida bolalarni tasviriy faoliyat orqali turli ranglar jilosini his etishga, estetik qobiliyatlarini o'stirishga, faol, chuqur fikrlashga va ko'tarinki kayfiyatda ishlashga o'rgatib borish muximdir. Tasviriy faoliyat (rasmda, loy ishi, applikatsiya) bolalarda nafaqat qiziqish uyg'otadi, balki ularni o'rab turgan olamni o'z ishida aks ettirishda, olamni ko'z oldida yaxlit xolda namoyon etishida va umuman har tomonlama shakllanishiga (estetik, aqliy, axloqiy) turtki bo'ladi. SHunday qilib, - *maktabgacha ta'lim yoshi davri tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o'rnidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir.*

Tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalash omillari va vositalari

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya vazifalarini xalq etish bolalarda tashabbuskorlik, ma'lum natijalarni oldindan bilish, ularga intilish, orzu qila bilish kabi sifatlarni shakllantirish bilan uzviy bog'langandir.

YUqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh guruhlarida estetik tarbiya berishning mazmuni va metodlari ishlab chiqiladi.

Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni *estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni* tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;
- san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berish.

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan. Bola ijodining mazmuniga ta'sir etadigan asosiy vosita.

Bolani hayajonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli taassurotlardir. Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go'zalligini his eta olsa, u albatta shu go'zallikni rasmda, hikoyasida aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obrazlarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushunchasiga yaqin bo'lsa, bunday kitoblar bolalar o'yini uchun rasm chizish va loydan narsalar yasash uchun bitmas-tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi.


Agar bolalar tilning go'zalligini, she'rning ritmini, ohangdorligini his eta olsalar, o'zlari ham kichkina she'rlar to'qib, qofiyalar tanlashga urinadilar.

Bolalardagi fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun badiiy qobiliyatning hamma turlarida ham xayolning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlanadi.

Bolalarni ijodiy maqsad qo'yishga o'rgatiladi.

Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlari bayramlarda, ko'ngil ochish kechalarida, ekskursiya va sayrlarda, har xil o'yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o'zlarining badiiy, ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart-sharoitni yaratib berishi zarur. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondoshishi lozim. SHu orqali u bolalarning o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini o'rganadi. Bolalar orasida ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga xavas juda erta uyg'onadi. Ammo bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash huquqini bermaydi. Lekin tarbiyachilar va ot-onalar bolalarning qiziqishlariga diqqat-e'tibor bilan qarashlari lozim. Ular bolani diqqat bilan kuzatayotib, unda musiqa, rasm, qurish- yasash va boshqa sohalardagi iste'dodning ilk kurtaklarini ko'rishlari mumkin. Boladagi qobiliyatlarning shakllanishi kattalarning mana shu kurtaklarni avaylab o'stirishlariga, ularga to'g'ri rahbarlik qilishlariga bog'liq.

3-chizma



Saxsning estetik madaniyatini shakllanishi ko'p jihatdan estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liq. Bunday tashqi va ichki shart-sharoitlar *estetik tarbiya omillari* deb ataladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o'rab turgan muhit, *turmush estetikasi* ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo'lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko'rsa, tevarak-atrofdan olingan taassurotlar ijobiy tavsifga ega bo'lsa, u kichikligidanoq estetik borliqni o'zi uchun me'yor sifatida qabul qiladi. Turmush estetikasi o'zida ko'plab detallarni qamrab oladi. Shuningdek, bolalarni borliqni va uning go'zalligini tahlil etib borishga o'rgatish lozim: "Seni ko'ylagingga qaysi rangdagi tufli mos tushadi, deb o'ylaysan?", "Uyimiz devoriga ko'proq qaysi rangdagi parda to'g'ri tushadi: ko'kmi yoki yashil?". Mazkur holatda bolaning aynan javobming o'zi muhim emas, asosiysi uning e'tiborini rangning mos kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go'zailik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani hosil qilishga erishishdir.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili -bu *tabiatdir*. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai. U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o'zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi. Masalan, Quddus Muhammadiyning "Bolari" she'rida ana shu jihat yorqin aks etgan:

G'uv-g'uv uchar bolari, Duv-duv uchar bolari.

Guldan gulga qo'nishib, Sharbat ichar bolari.

Sen qadrdon do'stimiz, Asaling yeb, o'sdik biz.

Yasab berayin quti, Bog'chamizda qol, ari!

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa, chuqur va yorqin idrok qilinadi, inson ularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Mana shu jihatdan estetik tarbiyaning yana bir vositasi sifatida *mehnat* yuzaga chiqadi.

Tarbiyaviy faohyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari *estetik tarbiya vositalari* deb ataladi.

Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy hamda shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi va aksincha borishi ham mumkin.


Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o'rab turgan muhit, *turmush estetikasi* ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo'lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko'rsa, tevarak-atrofdan olingan ta- assurotlar ijobiy tavsifga ega bo'lsa, u kichikligidanoq estetik borliqni o'zi uchun me'yor sifatida qabul qiladi. Turmush estetikasi o'zida ko'plab detallarni qamrab oladi.

Estetik tarbiya vositalari

Bolalarda go'zallik haqidagi bilimlar atrof voqelikni uning butun xilma-xilligida, shuningdek go'zallik eng ko'p jamlangan holda aks etadigan san'atni estetik o'zlashtirish jarayonida tarkib toptiriladi. Hayot xilma-xilligi, san'at turlari va janrlarning xilma-xilligiga sabab bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har biri o'z janriga ega bo'lgan grafika, rangtasvir, xaykaltaroshlik, manzarali amaliy san'at, adabiyot va musiqa bilan tanishadi.

Bolalar shuningdek bizni o'rab turgan dunyoning eng muhim estetik tomonlari va xususiyatlarini ham egallaydilar. Maktabgacha yoshdagi davrida musiqa, vokal va cholg'u, undagi mavzuni xilma-xilligi, ayrim asarlarning janri, tuzilishi, musiqali ifoda vositalari, musiqa asboblari haqida ham bilim beriladi, Bolalar xalq qo'shiqlari va raqslari, doira bo'lib qo'shiq aytish, klassik va zamonaviy musiqa asarlari bilan tanishadilar.

24-chizma



MTMni o'rab turgan go'zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi. Pedagogika tizimiga xos bo'lgan *estetika va etikaning birligini* oilada MTMlarda kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo'llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo'lishlari talab etiladi.

{ Bolalarni o'rab turadigan chiroyli narsalarning o'zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni *ko'rishga, qadrlashga, baholay bilishga* o'rgatish kerak. }

Tarbiyachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, yaxshilab joy-joyiga qo'yilgan mebelga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko'rib chiqiladi. Eng muhimi, hamma narsalarni bolalarda estetik zavqni qo'zg'ata oladigan qilib ko'rsatish kerak.

Bolalarda *estetik zavq uyg'otish* uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta'sir etish uchun bu xali etarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir.

{ Tarbiyachining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarsiz go'zallikka qiziqish uyg'ota oladi va bolalarda **estetik kechinmalar** paydo qila oladi. }

Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?» - deb so'rashadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib ko'ramiz deb javob beradi. Bog'ga borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo'lkalarni kuzatamiz».

Bog'ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to'xtab, jim atrofga nazar tashlashadi-da, nima uchun oltin kuzligini tushundik. CHunki burglar tillaga o'xshaydi. «Ana qizil barglar», deyishadi ular hayajon bilan. SHamol bo'lishi bilan barglar erga tushadi. Yo'lkalar esa gilamga o'xshaydi. Ko'chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan MTM ko'chasidan yurib o'tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko'rsa. savrdan keyin so'zlab beradi». SHuni ta'kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko'ra bilishga, undan hayratlana olishga o'rgatish lozim, Tabiatning go'zalligini va ajoyibligini inson hayot go'zalligiga, san'at go'zalligi va ajoyibotiga ayiantiradi.

{ **Jonajon tabiat** - estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. }

MTMda bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san'atning har xil turlari va janrlaridan (musiqa, rassomchilik haykaltaroshlik xalq amaliy san'ati. adabiyot va hokazo) foydalaniladi.

San'at - yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tunganmas manbai bo'lib xizmat qiladi, SHu bilan bir vaqtda har bir kishining rivojlanishi, ma'naviy boyishi uchun ham vositadir.

Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikriashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o'yinini uyg'otadi. Bu to'g'rida S.YA.Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshitishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o'z tuzilishi bo'yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bola o'zini ertakdagi qahramon o'rniga qo'ya oladi va «Qizil shapkacha»ni o'ynay oladi. San'atning hamma turlari - adabiyot, musiqa, rassomchilik xaykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir. Gilamchilik, tuqimachilik, kulolchilik, zarduzlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislar, to'qilgan va tikib gul solingan buyumlar va boshqalar tasviriy san'atning manzarali shakliga kiradi. Bundan tashqari, MTMda har bir viloyat, o'lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir.O'zbek naqshlari tushirilgan chiroyli guldor matolar qo'g'irchoqlar uchun ko'ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur.

Radio, oynai jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi. Ashula aytib o'yinga tushishda asosan xalq ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi. musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish va engil, chiroyli va latofat bilan raksga tushishga o'rgatiladi.

MTMda o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

1.2. Qo'g'irchoq teatri - estetik tarbiyaning eng muhim vositasi .

Estetik tarbiyaning vositalaridan biri **qo'g'irchoq teatridir**. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jiplashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi.

Multfilmlar ko'rsatish bolalarning estetik didlarini o'stirishda muhim vositalardan biridir. Diafilmlar ko'rsatishni adabiy matn o'qib berish bilan qo'shib olib borish bolaga filmning mazmunini yanada to'g'riroq va ta'sirchanroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi.

Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsa-da, ularni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar muxim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir. Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri ayniqsa katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga «o'qib» berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi.

Kitobdagi chiroyli, yopqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Kattalar mehnati, qahramonlik shuningdek, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo'lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

Bolalarning sevimli yozuvchilari Quadrat Hikmat, Mirmuxsin, SHukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she'rlari ularda ijobiv his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o'rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so'zlarning ta'sirchanligini his qilishga yordam beradi.

Kichkintoylar hammadan ham **ertaklarni** sevadilar. Ertakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo'ladi.

Eng muhimi, tarbiyachining o'zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she'rlarni ifodali o'qiy bilishi kerak

Musiqqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badan tarbiyada yangray boshlaydi.

MTMda kattalar rahbarligida bolalar tomonidan kontsertlar, bayramlar, qo'g'irchoq teatrlari, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi bo'lib, -aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

1-bob yuzasidan qisqacha xulosalar: Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi. Uning ob'ektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta'limdir.

Estetik tarbiyaning vositalaridan biri **qo'g'irchoq teatridir**. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jiplashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi

2-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-HISSIY RIVOJLANISHIDA QO'G'IRCHOQ TEATRINING ROLI.

2.1. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi va ma'naviy- tarbiyaviy ahamiyati

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda “Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtalib o'tish o'rinli, deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir”.⁴ Zero, qo'g'irchoq teatri vositasida bolaning atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu hodisalarni tushunish, “yaxshi” va “yomon”ni farqlash, qolaversa, go'zallikni ko'ra bilish va xis etishga ma'suliyat xissi oshadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish jarayonida quyidagi bosqichlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

o'tkazilishi rejalashtirilgan teatr oldi suhbat. Bolalarda teatr qahramonlarining o'ziga xos tabiati, hatti – harakatlari haqidagi tasavvurlarini savol-javob asosida aniqlash; teatrning ta'sirchan, xis-tuyg'u va mazmunga boy tarzda o'tkazilishi; teatr namoyishidan so'nggi suhbat.

bolalarning voqealar, ularning mazmun-mohiyatini haqidagi fikrlari.

Olib borgan izlanishlarning nazariy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, garchi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va bu borada samaradorlikka erishish yo'llari keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lsa-da, biroq, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish ilmiy tadqiqot uchun mavzu sifatida tanlanmaganligi, ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Shuningdek, jamiyatimizning jadal sur'atda har tomonlama rivojlanib borayotganligi, uzluksiz ta'lim tizimining tobora takomillashuvi natijasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tarbiyalash ehtiyojining yuzaga kelayotganligi ushbu metodik qo'llanmani yaratishga imkon yaratdi

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol inson qilib kamol toptirish – jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etildi. Bu borada kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyosdir. Maktabgacha ta’lim muassasalari ishini ko‘p qirrali deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda qo‘g‘irchoq teatri ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Qo‘g‘irchoq teatri bolalar bilan bevosita muloqotda bo‘lish, ularning “tili”da fikr almashish, maxsus ifoda vositalariga egaligi, kichkintoylarni ishontirish, voqea-xodisalarga nisbatan xis-tuyg‘ularini bildira olish xususiyatiga ko‘ra pedagogik ahamiyatga ega. Qo‘g‘irchoq teatri haqida fikr yuritilar ekan, shu o‘rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish g‘oyat o‘rinlidir: “Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Teatr – bu ibratxonadur», deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir. Bizning milliy teatr san’atimiz tarixan juda katta yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, uning qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomoshalariga borib bog‘lanadi”.⁵ Qo‘g‘irchoq teatri dunyoning ko‘plab xalq va elatlarga qadim zamonlardan buyon ma’lum. U jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo‘g‘irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, turli hajmda, o‘ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Shunday bo‘lsa-da, qo‘g‘irchoq teatrining to‘rt turini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular:

qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoqlar;

ip bilan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar;

soyali qo‘g‘irchoqlar;

aktyori ko‘rinadigan qo‘g‘irchoqlardir.

Teatr binolarining bugungi qiyofasi va o‘ziga xos sahna ko‘rinishlari tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Usti yopilgan sahnalar dastlab qadimgi Rimda vujudga kelgan, deb taxmin qilinadi. Ba’zi manbalarda berilishicha, teatrning nafaqat sahna qismi, balki butun amfiteatrning usti ham yopilgan. Teatr sahnalaridagi chodirlar

atrofdagilarni tashqi ta'sirlardan, xususan, shamol va yomg'irdan himoya qilgan. Dastlab, birinchi bor Rim teatrlarida parda paydo bo'lganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi. Pardaning vujudga kelishi, albatta, sahnada qandaydir bezaklar bo'lganligidan darak beradi. "Xalq ko'pincha turli bayramlar, Dionis sharafiga uyushtirilgan ko'cha namoyishlari, sport bellashuvlariga to'plangan. Shuning uchun bunday tomoshalar hammaga ko'rinarli bo'lishi uchun ko'proq tepaliklar yoki tog'lar etagida tashkil etilgan. Shunda tomoshabinlar o'ziga qulay bo'lgan tabiiy yondovlarga joylashib, bemalol tadbirlar guvohi bo'lganlar. So'ngra tomoshabinlar uchun yog'ochdan maxsus o'rindiqlar tashkil etilgan. Eramizgacha bo'lgan asrda esa vaqtinchalik tomosha inshootlari ulug'vor tosh amfiteatrlariga aylandi". Manbalarga tayangan holda, dunyo qo'g'irchoq teatrlarining ayrimlari xususida, ularning rivojlanish tarixi, o'ziga xosligi haqida fikr yuritmoqchimiz.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni

- Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" da bolalarni yuksak "ma'naviy", "axloqiy", "madaniy", "estetik" tushunchalarni mazmun va mohiyatini ularning qalbiga, ongiga singdirish davlat siyosatidagi muhim dolzarb muammolardan biridir. Shu jihatdan olib qaralganda O'zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi - jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'yimoqda. Darhaqiqat, bugun kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, jamiyat taraqqiyoti uchun shaxsan tashabbus ko'rsata oladigan yoshlarni maqsad sari to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining yoshi va o'ziga xos psixologik, fiziologik hamda jismoniy imkoniyatlari, qiziqishi, iqtidori hamda ehtiyojlari hisobga olinadi. Tajriba-sinov ishlari davrida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishga xizmat

qiluvchi ta'limiy mashg'ulotlar, ertak tomoshalari, qo'g'irchoq o'yinlardan foydalanildi. Sinov ishlariga jalb qilingan tarbiyachilarga qo'g'irchoq yasash, qo'g'irchoq teatrini tashkil qilish texnologiyalari, qo'g'irchoq turlarining tasviri tushurilgan bukletlar tavsiya qilinganligi jarayonning samarali kechishini ta'minlabgina qolmay, belgilangan vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni teatr tomoshalariga oshno qilish, ularning qo'g'irchoq o'yinlarini tashkil qilishdan maqsad:

- bolalar uchun ijodkorlik, faollikni ta'minlovchi shart-sharoit yaratish;
- teatr ko'rish odobiga o'rgatish;
- teatr tomoshalri jarayonida bolalarning nutqi va jismoniy rivojlanishidagi uzviylikni ta'minlash;
- xalq yaratigan boy merosimizga bo'lgan muhabbat hissini uyg'otish;
- qo'g'irchoq teatrini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil qilish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Har bir qo'g'irchoq teatri bolaning ruhiyatiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:
 - qo'g'irchoq teatri uchun tanlangan ertak bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo'lsa bolada butun vujudi bilan uni ko'rish va unga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi;
 - kuzatishlarimizdan ma'lumki, ayrim bolalarda ertak qahramoniga nisbatan ruhi tetiklik yoki qo'rqish, nafrat, ko'ziga yosh olish yoki kulib yuborish kabi emotsional xolatlar namoyon bo'ladi;
 - qo'g'irchoq teatri yakunida o'tkazilgan suhbatda bolalar qo'g'irchoq teatrida ko'rganlari haqida qiziqish va xursandchilik bilan qo'g'irchoq teatrini doimo ko'rishga xohish bildiradilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish mazmunini bosqichma-bosqich amalga oshirish ijobiy imkoniyat beradi:

Birinchi bosqich.

• Maktabgacha ta'lim muassasasida qo'g'irchoq teatrini tayyorlashda jihozlar ya'ni moddiy ta'minotni amalga oshirishda

- manba tanlash (ertak tanlash). Tanlangan ertak bolaning yoshiga mos kelishi;
- musiqa tanlash;
- qo'g'irchoq teatrini qo'rsatish rejasini tuzish.

Ikkinchi bosqich:

• ko'zlagan maqsadga erishishda ertak mazmuniga ko'ra qahramonlarni tanlash va so'zlarini yod oldirish;

- qo'g'irchoqlarni yasash va kiyintirish;
- tarbiyachi bilan hamkorlikda shyerlarni yod olish.

Uchinchi bosqich:

• tarbiyachi va bolalar bilan hamkorlikda teatr turiga ko'ra ertakni sahnalashtirish;

• qo'g'irchoq teatrini namoyish, bolalarni qiziqishlari va ularga yoqqan qahramonlar haqidagi fikrlarini aniqlash.

• Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatridan samarali foydalanish bolalarda katta zavq bag'ishlaydi hamda ularning hayotini yanada quvnoq bo'lishini ta'minlaydi.

Biz tadqiqot doirasida har bir guruhning yoshi, saviyasi, qiziqishiga ko'ra quyidagilarga amal qildik.

Kichik yoshdagi bolalar guruhida:

- teatr haqidagi dastlabki tasavvurlarni rivojlantirish;
- ertak qahramonlarining nomlarini bilish;
- teatr ko'rish odobi, tartib-qoidalari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- teatr qahramonlarining so'zlarini tarbiyachi hamkorligida yod olish;
- soya teatrlariga tayyorlangan andozalarni bo'yash, tartibli ravishda joylashtirish.

O'rta yoshdagi bolalar guruhida:

- bolalarning qo'g'irchoq teatri haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;
- sahnada hayvonlar va ertak qahramonlarini ko'rsatib, ularni harakatga keltirish;
- aktyor sifatida o'zlarini erkin tutishlariga imkon yaratish;

- teatr ko‘rish odobiga o‘rgatish;
- tarbiyachi yordamida dekoratsiyalar tayyorlashda mustaqillik kabi sifatlarga ega bo‘lish.

Katta yoshdagi bolalar guruhida:

- teatrda aktyorlarning so‘zlashi, qo‘shiqlar kuylashi haqida tushuncha hosil qilish;
- ertakdan ixtiyoriy rol tanlash;
- tomoshaga tanlangan ertaklarni mazmunan kengligi hamda rollarni bajarishda hamkor tanlashning ixtiyoriyligiga e‘tibor qaratish;
- bolalarga qo‘g‘irchoqlarni mustaqil yasashi, kiyim tanlashiga imkon berish.

Tayyorlov yoshidagi bolalar guruhida:

- bolalarning teatr haqidagi dastlabki bilimlarini mustahkamlash;
- qo‘g‘irchoq teatri-san‘at turlaridan biri ekanligini bolalarga tushuntirish;
- teatr san‘atiga qiziqish uyg‘otish.

Bu davrda bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida moddiy va ma‘naviy hayot haqida quyidagi tasavvurlarni shakllantirish muhim:

- teatrda go‘zal tabiatning tasviri va undan zavqlanish;
- qadim zamonlardagi voqea va xodisalarning abadiy tasviriga munosabat bildirish;
- qahramonlarning xatti-harakatlari ko‘ra “yaxshi” va “yomon” fazilatlarini ko‘ra bilish.
- Qo‘g‘irchoq teatrlarini sahnalashtirishda tarbiyachi dastlab har bir guruh bolalarini yoshi, qiziqishiga alohida e‘tibor bergan holda ertak tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi.
- Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, biz o‘rgangan va tajriba-sinov uchun tanlagan maktabgacha ta‘lim muassasalarida doimiy bir xil ertaklarning ko‘rsatilishi natijasida bolalarda qandaydir qiziqmay qolishlik xolatlarini tadqiqot davomida aniqlandi. Bular: “Qizil qalpoqcha”, “Bo‘g‘irsoq”, “Ajoyib qo‘shiqcha”, “Zumrad va Qimmat”, “Bo‘ri va echki bolalari” kabilar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlash joizki, tajriba ishlari davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini

shakllantirishga imkon yaratuvchi ertaklarni tanlashni ma'qul topdik. Bular: "Ipak yo'li ertaklari" ya'ni unda 32 davlat ertaklari jamlangan. "O'zbek xalq ertaklari", "Rus xalq ertaklari" hamda "Bolajon" dasturidan ham keng foydalanildi.

1. Kichik yoshdagi (3-4) bolalar uchun:

- "Fil bilan xo'roz" (xalq ertagi).
- "Bo'ri bilan echki" (xalq ertagi).
- "Nasibaning olmasi" (SH.Sa'dulla).

2. O'rta yoshdagi (4-5) bolalar uchun

- "Quyjon va laylakvoy" (xalq ertagi).
- "Aqlli qarg'a" (xalq ertagi).

3. Katta yoshdagi (5-6) bolalar uchun:

- "Qarg'aboy" (xalq ertagi).
- "Ur to'qmoq" (xalq ertagi)
- 4. Maktabga tayyorlov yoshidagi (6-7) yoshdagi bolalar uchun:
- "Egri va To'g'ri" (xalq ertagi).
- "Yolg'on do'st" (A.Avloniy).

•

2-bob yuzasidan xulosalar: Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axlohiy-estetik sifatlarni shakllantirishda hamkorlik aloqalari muhim o'rin tutadi. Masalan, davlat qo'g'irchoq teatrlariga tashrif buyurish orqali bolada qo'g'irchoq va uning xatti-harakatlari, qo'g'irchoq teatrini tashkil etish jarayoni to'g'risida yorqin tushunchalar hosil bo'lsa, oilalar bilan hamkorlik natijasida bolaning ichki kechinmalari, orzu-istaklari, qiziqishlari xususida bir qator ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

3-BOB.TAJRIBA SINOV ISHLARI VA NATIJALARI

3.1. Maktabgacha ta'lim amaliyotida "Qo'g'irchoq teatri" vositasidan foydalanish ahvoli va ahamiyatini o'rganish.

Ma'lumki, bola tarbiyasiga atroflicha yondashish o'quv va tarbiyaviy vazifalarning birligida, turli yosh guruhlarida o'quv, o'yin va mehnat faoliyatlarining aloqadorligida amalga oshiriladi. Bu borada qo'g'irchoq o'yini muhim ahamiyat kasb etib, bola o'ziga sheriklar, zarur qo'g'irchoqlarni tanlaydi, rollar taqsimlanadi, muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiradi, muloqotga kirishadi hamda shaxsiy tashabbuslari vujudga keladi. Ushbu jarayonda eng muhimi bolaning qiziqishi va xissiyotlariga mos keluvchi qo'g'irchoqlarning mavjudligidir. Biz tajriba sinov ishlarimizni maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari va MTM tarbiyachi-pedagoglari bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik, ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda qo'g'irchoq teatrining roli va ahamiyatini o'rganish maqsadidan kelib chiqib, dastlab davra suhbatlari o'tkazdik.

Davra suhbatlari:

1. "Bolalarni qo'g'irchoq teatrlariga jalb etish" mavzusida;
2. "Qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan metodik yordam" mavzusida;
3. "Bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida shakllanadigan ahloqiy-estetik sifatlar" mavzusida;
4. "Teatr – ma'naviyat maskani" mavzularida tashkil etildi.

Davra suhbatlarini tashkil etilishi va natijalar taxlili

№	Davra suhbatini mavzusi	O‘tkazilgan joy, auditoriya	Ishtirokchilar soni	To‘plangan fikrlar % foizda	
				Ijobiy	Salbiy
1	Bolalarni qo‘g‘irchoq teatrlariga jalb etish	MTM tarbiyachilari	15 nafar	30%	70%
2	Qo‘g‘irchoq teatrlarini tayyorlashda maktabgacha ta’lim muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan metodik yordam	3-курс талабалари	25 nafar	10%	90%
3	Bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida shakllanadigan ahloqiy-estetik sifatlar	4-kurs talabalari	20 nafar	100%	0%
4	Teatr – ma’naviyat maskani	Surxondaryo viloyat Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari	10 nafar	100%	0%

3.2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mashg'ulot ishlanmalari va mashg'ulotlarni tashkil etish.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, fiziologik va jismoniy imkoniyatlari inobatga olindi. Bolalarning qiziqish va iqtidoriga tayangan holda tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanilgan mashg'ulotlardan ayrimlari xususida so'z yuritiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun "Qo'g'irchoq teatriga sayohat" mavzusidagi mashg'ulot quyidagi ko'rinishda o'tkazildi:

Mashg'ulot mavzusi: "Qo'g'irchoq teatriga sayohat"

Mashg'ulotning maqsadi:

ta'limiy: qo'g'irchoq teatri, uning tashkil etilishi, aktyorlar haqida atroflicha tushuncha berish, olgan bilimlarini yanada mustahkamlash;

tarbiyaviy: bolalarda qo'g'irchoq teatri va uning vositasida tarkib topadigan ahloqiy-estetik sifatlarni tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: qo'g'irchoq teatri vositasida yosh avlodni ma'naviy barkamol va ahloqan yetuk inson bo'lib yetishishini ta'minlash, ijodkorlik qobiliyatlarini rivoltirish.

Kutilayotgan natijalar:

bolalarning qo'g'irchoq teatri hamda qo'g'irchoqlarga bo'lgan qiziqishini yanada o'stirish;

sahnada rol ijro etish qo'nikmalarini shakllantirish.

Mashg'ulot jihozi: mavzuga oid turli rasmlar, tarqatma materiallar.

Mashg'ulot turi: yangi bilimlarni beruvchi noan'anaviy mashg'ulot.

Mashg'ulot uslubi: savol-javob, sahna va ko'rgazmali tarzidagi o'yinlar.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum aziz bolajonlar! Bugun sizlar bilan ajoyibot va g'aroyibotlar olami ya'ni qo'g'irchoq teatri haqida suhbatlashamiz. Bilasizlarmi, qo'g'irchoq teatri o'zi nima? Aktyorlar kimlar?

Qo'g'irchoqlarning qanday turlari bor? Keling, bu haqda bir boshdan tushuntirib bersam. Diqqat bilan eshitinglar!

Qo'g'irchoq teatri bizga qadimdan ma'lum. Unda qo'g'irchoq tomoshalari o'tkaziladi. Qo'g'irchoq teatrida pardoqchilar, yozuvchi (dramaturglar), rassomlar, aktyorlar va boshqalar ishlaydilar. Teatr – bu sehrlı dunyo. Teatrdagi bosh sehrarlar – aktyorlar hisoblanadi. Ular yordamida biz ertaklar olamiga sayohat qilamiz. Ertakqahramonlarining yaxshi-yomon tomonlarini, sarguzashtlarini, xullas, boshidan kechirganlarini aktyorlar sahnada ko'rsatib beradi. Aktyorlarning eng katta yordamchilari bu – qo'g'irchoqlardir. Ular qo'g'irchoqning xursand yoki xafaligini ko'rsatib beradi, unga ovoz beradi hamda harakatlantiradi. Keling qo'g'irchoq teatri haqida yanada yaqinroq tasavvurga ega bo'laylik. Bu shahrimizdagi “Lola” qo'g'irchoq teatri (ixtiyoriy qo'g'irchoq teatrining tashqi ko'rinishini ko'rsatish mumkin).

Mana bu joy esa “chiptaxona”, u yerda teatr tomoshasi uchun chipta sotiladi.

(Tarbiyachi teatr binosi hamda “kassa” tasviri tushirilgan rasmni bolalarga ko'rsatadi).

Teatrga kirish uchun avval chipta olinadi. Chipta qanday ko'rinishda bo'lishi haqida tasavvurga ga bo'lmoqchimisiz?

Bolalar: Ha.

Tarbiyachi: Mana bu chipta. (Kattalashtirilgan holda tasviri tushirilgan chipta ko'rsatiladi). Ushbu chipta pul to'lab sotib olinadi. Unda teatr tomoshasining nomi, qator va o'rin raqami yozilgan bo'ladi. Shunga ko'ra belgilangan o'rindiqqa o'tirasiz. (Tarbiyachi ushbu jarayonni bolalarga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun bevosita ularning ishtirokida, kichik sahna ko'rinishini tashkil etadi. Belgilangan stolga “chiptaxona” so'zi yozilgan yorliq qo'yiladi. U yerda turli o'rindiq va qatorlar raqami ko'rsatilgan biletlar qo'yiladi. Bolalar orasidan chipta sotuvchi va xaridorlar tanlab olinadi. Ularning chipta sotib olish uchun sotuvchiga murojaati va chipta haqida tushunchaga ega bo'lishlari tarbiyachi tomonidan tushuntiriladi).

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar! Bugun biz sizlar bilan qo‘g‘irchoq teatriga sayohat qildik. (Mashg‘ulot so‘ngida barcha ma‘lumotlar umumlashtiriladi va savol-javob orqali umumlashtiriladi.

Bu jarayonda bolalarning faol ishtirokiga, ijodkorlik qobiliyati katta e‘tibor beriladi). Kelgusi mashg‘ulotimizda qo‘g‘irchoqlar va ularning turlari haqida suhbatlashamiz. (Faol ishtirok etgan bolalar rag‘batlantiriladi)

Mavzu: Qo‘g‘irchoq turlari va teatr ko‘rish madaniyati

Mashg‘ulotning maqsadi:

ta‘limiy : qo‘g‘irchoq turlari haqida atroflicha tushuncha berish, olgan bilimlarini yanada mustahkamlash;

tarbiyaviy: bolalarda qo‘g‘irchoq teatri va uning vositasida tarkib topadigan ahloqiy-estetik sifatlarni tarbiyalash, teatr ko‘rish madaniyatini shakllantirish.

rivojlantiruvchi: qo‘g‘irchoq teatri vositasida yosh avlodni ma‘naviy barkamol va ahloqan yetuk inson bo‘lib yetishishini ta‘minlash, ijodkorlik qobiliyatlarini rivoltantirish.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid turli rasmlar, tarqatma materiallar, qo‘g‘irchoqlar.

Mashg‘ulot turi: yangi bilimlarni beruvchi noan‘anaviy mashg‘ulot.

Mashg‘ulot uslubi: savol-javob, ko‘rgazmali tarzdagi o‘yin.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi: Assalomu alaykum aziz bolajonlar! Bugun sizlar bilan qo‘g‘irchoq va uning turlari, teatr ko‘rish madaniyati haqida suhbatlashamiz.

Tarbiyachi: Qo‘g‘irchoqlarni yaxshi ko‘rasizlarmi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Qanday qo‘g‘irchoqlarni yoqtirasizlar? (Bolalar birin-ketin javob beradilar)

Tarbiyachi: Juda yaxshi. Keling men sizlarga qo‘g‘irchoqning turlari haqida aytib beraman.

Qo‘g‘irchoq teatrining quyidagi to‘rt turini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular:

qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoqlar;

ip bilan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar;

soyali qo'g'irchoqlar;

aktyori ko'rinadigan qo'g'irchoqlardir.

- (Tarbiyachi qo'g'irchoqlarning ushbu to'rt ko'rinishlari tasvirlangan rasmlarni hamda qo'g'irchoqlardan namunalarni bolalarga ko'rsatadi. Ularning alohida xususiyatlari, ularni boshqarish haqida tushuncha beradi).
Tarbiyachi: Aziz bolajonlar! Teatr tomosha qilganda quyidagi tartib-qoidalarga rioya qilishimiz kerak bo'ladi. Bu esa madaniyatli, axloq-odobli ekanligimizdan dalolat beradi. Ular quyidagilardan iborat:

- teatr tomoshasiga o'z vaqtida kelish zarur. Kech qolib kirilsa o'zgalarga xalaqit bergan bo'ladi;
- tomosha vaqtida baland ovozda gapirmasliklik, shovqin solmaslik kerak;
- tozalikka rioya qilinishi va farroshlar mehnati qadrlinishi lozim. YA'ni tomosha zaliga har xil yegulik va ichimlik olib kirmaslik, uning qoldiqlarini tashlamaslik talab etiladi;
- tomosha zalida yugurish, bir-birini quvlash, tomosha paytida o'rnidan turib olishga yo'l qo'yilmaydi;
- tomosha vaqtida har xil luqma tashlab, gap qo'shib, beo'rin kulmaslik kerak. Aks holda aktyorlar va o'zgalarga xalaqit beradi;
- tomosha tugagandan so'ng tarbiyachining ruxsati bilan navbatma-navbat harakatlanish, bir-birini turtmaslik, o'zidan kattalarga yo'l berish lozim. (Mashg'ulot so'ngida barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va savol-javob orqali umumlashtiriladi. Bu jarayonda bolalarning faol ishtirokiga, ijodkorlik qobiliyati katta e'tibor beriladi. Faol ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi).
Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarini olib borishda bolalar uchun ertak tomoshalarning qo'yilishi ularda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning ta'sirchan omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Ertak tomoshalarning tarbiyaviy imkoniyatlari mazkur yosh davri bolalarida do'stlik, o'rtoqlik xissi, o'zaro yordam berish, samimiylik, kattaga hurmat, kichiklarga izzat, o'z-o'zini munosib baholash, o'z kuchiga ishonish kabi sifatlarni samarali shakllantirilishini ta'minladi.

- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda quyidagi “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar!” yoki “O‘rmondagi mojaro”, “Maqtanma g‘oz, hunaring oz!”, “Ishonmagin-do‘stinga, somon tiqar po‘stinga!” yoki “Tulkivoy va Laylakvoy hangomasi” nomli ertak tomoshalarining qo‘yilishi bolalarda katta taassurot qoldirdi va ushbu jarayonda yagona maqsadga yo‘naltirilgan bolalar faoliyatni izchil tashkil etish zarurligini tasdiqladi.

1. “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar!” yoki “O‘rmondagi mojaro”

(Ertak tomosha)

Qatnashuvchilar: ertakchi (tarbiyachi), sichqon, mushuk, it, qo‘y, bo‘ri, tulki, quyon, sher, chumoli.

Qo‘g‘irchoq o‘yinning boshlanishi. Sahnaga ertakchi chiqib keladi. Ertakchi – Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Meni taniyapsizlarmi? Kelinglar yaqindan tanishib olaylik, meni odatda Xizr bobo deb ham ataydilar. Men xalq orasida yurib, qo‘limdan kelganicha yordamga muhtojlarga ko‘mak berib yuraman. Ertaksevar bolajonlarga esa eng qiziqarli ertaklarimdan aytib beraman. Ertak eshitib kitob o‘qigan, ilm izlagan bolalardan xech qachon yomon insonlar yetishib chiqmaydi. Bolajonlar bekorga “beshikdan qabrgacha ilm izlang” deb aytishmagan, to‘g‘rimi?

Xo‘sh, ertak eshitishga tayormisizlar! Juda yaxshi, men sizlarga maqtonchoqlik yomon illat ekanligi haqida ertak aytib beraman. Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan. Toshbaqa tarozibon-u, qurbaqa undan qarzdor ekan. Kun chiqar tomonda katta o‘rmon bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kuni, butun o‘rmonda yashovchi hayvonlar yig‘ilishib, o‘rmonni boshqara oladigan dono xukmdorni tanlab, uni shoh qilib saylashmoqchi bo‘lishibdi. Birinchi bo‘lib kichkina sichqoncha so‘z boshlabdi. Sichqon – Aziz birodarlar, xabaringiz bor shu paytgacha o‘rmonimizni boshqaruvchi shohimiz yo‘q. O‘zimizni o‘zimiz himoya qilmasak, kim ham bizni himoya qila olardi.

Agarda meni shoh etib saylasanglar jon-jon deb sizlarni himoya qila olaman, chunki yaxshi bilasizlar o‘rmonda eng ulkan hayvon fil ham mendan qo‘rqadi! Axir bekorga aytishmagan-ku “kichkina demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni”deb. Ertakchi – Bu gaplarni eshitib turgan mushukcha sichqonni oldiga sakrab chiqibdi. Uni ko‘rgan sichqon oldi-ortiga qaramay qochib qolibdi. “Sichqonni ini ming tanga” maqoli shundan qolgan bo‘lsa kerak.

Mushuk – E, o‘rgildim senga o‘xshagan dovyurak himoyachidan. Kelib-kelib kunimiz mana shu sichqonchaga qoladimi? Yaxshisi meni shoh qilib saylanglar? Ko‘rib turibsizlar, xattoki, zo‘ravon filni qo‘rqitgan sichqoncha ham meni ko‘rib qochib qoldi-ku! Agarda men shoh bo‘lsam, hammangizni erkin yashashingizga ruxsat beraman!

Ertakchi – Shu payt jahli chiqqanidan yunglari xurpayib, akkillagancha bahaybat it davraga chiqib kelibdi. Buni ko‘rgan mushukning kapalagi uchibdi-yu, sekin burilib hayvonlar ichiga kirib ketibdi.

It – Men mushukvoyning gaplariga umuman ishonmayman. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, mehnat qilmay tekin ovqat izlab yuruvchi tekin tamoqqa qanday qilib ishona olamiz, bekorga “o‘g‘ri mushuk” nomini olmaganidir-ov. O‘zlaringizga ma’lum, itlar bilan mushuklar xech qachon kelisha olmaydilar. Mobodo mening nomzodimni qo‘llab-quvvatlasanglar, o‘rmonda birorta ham o‘g‘irlik bo‘lmasligiga, tekin daromad hisobiga yashovchilarni yo‘q qilishga vada beraman.

Ertakchi – Yunglari oltindek tovlanib, xursand kayfiyatda dadil qadamlar bilan davraga qo‘y chiqibdi.

Qo‘y – O‘rtoqlar! Men jon-jon deb bo‘ribosar akamni qo‘llab-quvvatlashga chaqiraman. Axir har doim hammamizni mushtumzo‘rlardan kim himoya qilgan? Albatta, bo‘ribosar akamiz. Baxtimizga doimo omon bo‘ling, yashasin doimiy himoyachimiz bo‘ribosar akamiz!

Ertakchi – Ko‘zlari qonga to‘lgan bo‘ri sekin-asta davraga chiqibdi. Bo‘ri – Men umuman gapirmoqchi emasdim, lekin bu yerdagi nohaqlikni ko‘rib turib chiday olmadim. Mana bunaqangi hushomadgo‘ylarga qachon qarshi kurashamiz, axir.

Bu xonimcha mushtumzo‘r deganlarida, albatta, meni nazarda tutmoqdalar. Men sog‘lom hayvonlarga hech qachon tajovuz qilgan emasman, kasallarni ov qilaman. Bekorga meni “o‘rmon tabibi” deyishmaydi, men o‘rmon ahlini har-xil yuqumli kasalliklardan saqlayman.

Ertakchi – Davraga paxmoqqina dumini ko‘z-ko‘z qilib tulkixon chiqib kelibdi. Tulki – Men sizlarga aytsam, bo‘ri og‘amni qo‘llab-quvvatlagim keladi, ammo o‘rmon boshqaruvini unga ishonib bo‘lmaydi. Chunki bo‘rivoyimiz, yaxshi bilasizlar, sal laqmaroq. Men o‘zim necha bor uni laqillatib ketganman. To‘g‘ri meni ayyor tulki deyishadi, buni o‘zim ham tan olaman. Axir, bu hayotda sal-pal ayyorlik ham qilib ham turish kerak-da! Gapni qisqasi, birirta baquvvat shoh topilsa men jon-jon deb maslahatchi vazir bo‘lishga doim tayyorman.

Ertakchi – Tulkioyni gapini eshitib, barcha o‘rmon hayvonlarni chuqur o‘yga tolishibdi. Kimni o‘rmon shohi deb e‘lon qilishga boshlari qotibdi, shunda qo‘rqa-pisa quyonvoy davraga chiqib gap boshlabdi.

Quyon – Kechirasizlar birodarlar! Men o‘rmon shohligiga da‘vogarlik qilmoqchi emasman. Lekin o‘ylaganimni hozir aytmasam, keyin o‘zimni aybdordek his qilaman. Men o‘rmonimiz shohi nafaqat kuchli, chaqqon va uddabiron, balki vijdonli ham bo‘lishini hohlayman. To‘g‘ri meni bekorga “qo‘rqqoq quyon yurak” deb atashmaydi, men qo‘rqqoq bo‘lganim bilan vijdon amriga bo‘ysunib yashayman. Sizlarga ham shunday yashashni tavsiya qilaman. Mashoyihlar bekorga aytishmagan “mehnatsiz turmush o‘g‘irlikdir”.

Ertakchi – Quyonvoyni so‘zlarini eshitgan o‘rmon ahli biroz sukut saqlashibdi-yu, so‘ngra birdan shovqin-suron boshlanib ketibdi. Hammalari baqirib-chaqirgan, hattoki, bir-birlariga qo‘l ko‘tarishga borib yetishibdi. Shu payt bir chetda oftobda toblanib yotgan sher nara tortgan ekan, o‘rmon suv quygandek jim bo‘lib qolibdi.

SHer – Hoy o‘rmon ahli! Meni diqqat bilan eshitib, so‘zlarimga quloq solinglar! Bunaqa bir-birimiz bilan tortishib o‘tiraversak, hech qachon bir qarorga kela olmaymiz. Men o‘rmon shohligiga o‘z nomzodimni qo‘yaman, chunki ichingizda eng baquvvati ham men bo‘lsam kerak yoki men bilan kuch sinamoqchi bo‘lganlar bormi oralaringizda?

Ertakchi – SHerning qo‘rqinchli vajohatini ko‘rib, hech kim unga qarshi gapirishga jur‘at etolmabdi. Shu payt bir dona bug‘doy donini sudrab borayotgan chumoli sherning gapini eshitib to‘xtabdi, peshonasidagi sizib chiqayotgan peshona terini artibdi.

Chumoli – Ey, zamonaning rustamu-dostoni. Yurtni boshqarish uchun baquvvat bo‘lishgina emas, adolatparvar, xalqparvar bo‘lmoq kerak. Ahir “kuch adolatdadir” deb bekorga aytishmagan-ku! Qolaversa, ahillikda gap ko‘p, ahil-inoq bo‘lib yashasak har qanday to‘siq, har qanday dushman bizni yenga olmaydi. Yana eng asosiysi halol mehnat qilish kerak. Mana biz chumolilar ahil yashaymiz. Mehnatni ham birgalashib qilamiz, rohatini ham birga baham ko‘ramiz. Ertakchi – Shundan so‘ng o‘rmon ahli bir ovozdan sherni o‘rmon shohi, dono va mehnatkash chumolini uning maslahatchi vaziri etib saylashibdi. Ana ko‘rdinglarmi bolajonlarim, ahillikda, inoqlikda gap ko‘p ekan. Xalqimizda “birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”, “yakka otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dongi chiqmas” degan naqlar bor. Hamjihatlikda mehnat qilgan halq bu qudratli kuchdir. Shuning bilan ertagim ham o‘z nihoyasiga yetdi, yana ko‘rishguncha omon bo‘linglar!

“Maqtanma g‘oz, hunaring oz!” (Ertak tomosha)

Qatnashuvchilar: Ali qo‘g‘irchoqboz, Ahmad, Abdusalom, Hizr bobo. Ali qo‘g‘irchoqboz – Odamlaru odamlar, Bog‘da bitgan bodomlar, Eshitmadim demanglar, Eshitganlar jilmanglar! Boshlanmoqda tamosha, Keling tog‘u qir osha! Assalomu alaykum aziz bolajonlar! Zerikmay o‘tiribsizlarmi? Xo‘sh tamosha ko‘rishga tayyormisizlar? Unday bo‘lsa boshladik. Ha aytmoqchi, tamoshani boshlashdan avval men o‘zimni sizlarga tanishtirsam. Meni Ali qo‘g‘irchoqboz deyishadi, mana bu xurjunimda xilma-xil qo‘g‘irchoqlarim bor. Men shu qo‘g‘irchoqlarim bilan maktablarda, bolalar bog‘chalarida, qolaversa, mahallalarda yurib, sizday jajji bolajonlarga qo‘g‘irchoq tamosha ko‘rsataman. Bugun men sizlarga maqtanchoqlik, kibrga berilishlik qanday oqibatlarga olib kelishi haqida ertak aytib bermoqchiman, ertak eshitishga tayyormisizlar, juda yaxshi unday bo‘lsa boshladik.

Ali qo‘g‘irchoqboz – Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim o‘tgan zamonda emas, xuddi mana shu baxtiyor zamonimizda, kattakon bir shahri azimda Ahmad ismli bola yasharkan (xurjunidan qo‘g‘irchoq oladi, bolalarga ko‘rsatib). Mana u – Ahmad yalqov.

(Ahmad yalqov maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchisi. Guruhidagi eng maqtanchoq, urishqoq, yalqov bola. Tarbiyachilarning so‘ziga xech quloq solmaydi. Mobodo tanbeh eshitsu darrov arazlaydi. Shuning uchun xech kim u bilan do‘st bo‘lishni istamaydi, doim yolg‘iz yuradi. Qolaversa, Ahmad yalqov deb bekorga chaqirmaydilar, chunki dunyoda ikkita dangasa bo‘lsa bittasi shu).
Ali qo‘g‘irchoqboz – Ha Ahmadboy, nega baqrayib turib qoldilar, salom qani?
Ahmad – Salom uyida.

Ali qo‘g‘irchoqboz – E, pandavaqi men sendan Abdusalomni emas, assalomu alaykumni so‘rayapman. Bolajonlar bilan salomlashmaysanmi?

Ahmad – Endi bir kami, o‘zimdan kichiklarga salom berishim qoluvdi (piching bilan).

Ali qo‘g‘irchoqboz – Hay-hay, Ahmadjon unchalik kibrli bo‘lish yaramaydi, bobolarimiz aytishgan-ku, “o‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil” deb. Qolaversa bu yerda nafaqat bolajonlar, balki ustozlaring, tarbiyachi opalar o‘tirishibdi.
Ahmad – Uf-f, juda jonga tegdi-da bu nasihatlar! Men sizga aytsam hozirgina dadam bilan oyim bir soat nasihat qildilar.

Ali qo‘g‘irchoqboz – Ha, “yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi” deb bekorga aytilmagan ekan. Ha mayli men seni bekorga olib kelmadim, eshitishimga qaraganda sen ko‘cha harakati qoidalarini juda yaxshi bilar emishsan?
Ahmad – Ana o‘zingiz ham bilarkansiz-ku, men-chi bog‘chamizdagi eng kuchli, yeng aqli bolaman.

Ali qo‘g‘irchoqboz – Shularni mana bu do‘stlaringga o‘rgatarsan, deb seni bu yerga olib keldim-da.

Ahmad – Bekordan-bekorga-ya?

Ali qo‘g‘irchoqboz – Axir bular bolalar, qolaversa do‘stlaring-ku!

Ahmad – E, Alijon aka eshitganmisiz, “quruq gap quloqqa yoqmas, hom yog‘ dimoqqa yoqmas”! deydilar, omon bo‘ling amaki! (Ahmad kulganicha chiqib ketadi). Ali qo‘g‘irchoqboz – (Hafsalasi pir bo‘lib) ha, ko‘rdinglarmi bolajonlar, lekin sizlar xech qachon Ahmad yalqovdan o‘rnak olmanglar. Kelinglar yaxshisi men sizlarni yana bir qahramonim bilan tanishtiraman.

(Abdusalom – Ahmadning tengdoshi va guruhdoshi. U bilan bir bog‘chaga berishadi. Doim yordamga muhtojlarga ko‘mak beradi. Jamoat ishlarida juda faol qatnashadi, doimo tarbiyachilarning aytganlariga quloq soladi. Guruhdagi eng aqlli bolalardan, hali maktabga bormay turib “Alifbe” kitobini o‘qib o‘rganib olgan. Uy ishlarida oyijonisiga doimo yordamchi...)

Abdusalom – Assalomu alaykum, Alijon aka!

Ali qo‘g‘irchoqboz – Vo alaykum assalom.

Abdusalom – Meni chaqirtirdingizmi, amaki?

Ali qo‘g‘irchoqboz – Bilasanmi, men bu bolajonlarga ko‘cha harakati qoidalarini o‘rgatmoqchi edim.

Abdusalom – Tushunarli, demak birgalashib bolajonlarning bilimini sinab ko‘ramiz, shundaymi?

Ali qo‘g‘irchoqboz – Xuddi shunday. Men hozir bolalarga ba‘zi bir narsalarni ko‘rsataman, ma‘bodo ular qiynalib qolgudek bo‘lsa, yordam berib yuborasan, xo‘pmi?

Abdusalom – Bajonidil yordam beraman.

Abdusalom – Bu ko‘rsatuvchi belgi bo‘lib, piyodalarning yo‘lni kesib o‘tish joyiga qo‘yiladi. Mana bunisichi?

Abdusalom – Ogohlantiruvchi belgilar turkumiga kirib, bolalarni katta yo‘lga chiqib qolishidan ogohlantiradi.

Ali qo‘g‘irchoqboz – Mana bunisi qanday belgi?

Abdusalom – Ta‘qiqlovchi belgilar turkumidan. Katta yo‘lni kesib o‘tish mumkin emas-deb ta‘qiqlaydi.

Ali qo‘g‘irchoqboz – Juda yaxshi, endi mana belgini ham topa olsang, seni a‘lochi ekanliginga ishonaman. (Xurjunidan belgini olib ko‘rsatadi.)

Abdusalom – Alijon Aka, axir bu belgini har bir katta-yu kichik bilishi shart-ku. Bu svetafor, shaharning eng gavjum chorrahalarida, o'tish joylariga qo'yiladi. Uning uchta yonib turuvchi ko'zlari bor. Agar qizil ko'zi yonsa harakat tugatiladi, sariq ko'zi yonganda harakat uchun ogohlantiriladi, yashil ko'zi yonsa harakatlanish mumkin degani.

Ali qo'g'irchoqboz – Barakallo, xo'sh bolajonlar sizlar ham eslab qoldinglarmi? Juda yaxshi.

Abdusalom – Ali aka, chamamda do'stlarim ham zerikishib qoldi-yov, boya bir ertakni boshladingiz.

Ali qo'g'irchoqboz – Eh, esim qursin, ertak aytmoqchi edim-a? Bobolarimizda bir gap bor, o'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi deyishadi.

Qani boshladik bo'lmasa.

Abdusalom – Qani boshladik.

(Ali qo'g'irchoqboz doira chaladi, chodir jomollar harakatga kelib to'xtashadi)

Ali qo'g'irchoqboz – Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamondamas, huddi mana shu baxtiyor zamonamizda, kattagina mana bu shahrimizda, Ahmad bilan Abdusalom ismli do'stlar yashashar ekan. Ahmad urishqoq va yalqovligi sababli doim do'sti Abdusalomni xafa qilib yurarkan. Lekin Abdusalom bunga e'tibor bermas ekan. Doimo do'sti Ahmadga yordam berishga oshiqarkan. Kunlardan bir kun ular tarbiyachilari bilan bog' aylangani shaharga chiqishibdi. Har galgidek Ahmad bog'cha opalarining gapiga kirmasdan adashib qolibdi, shaharning eng gavjum oyida yig'lab turganida Abdusalom uni qidirib kelibdi.

Abdusalom –Ha do'stim, nega yig'lab turibsan?

Ahmad –Adashib qoldim deb qo'rqib ketdim.

Abdusalom –Nega qo'rqasan, ahir yoningda men borman-ku.

Ali qo'g'irchoqboz – Shu payt ularning yonida bir qariya paydo bo'libdi.

Bu kishiHizr bobo ekan.

(O'tmishda va hozirgi zamonlarda insonlar orasida bir afsona yuradi, u bolalar va kattalarni sinab imtihon qilib yurar emish.U bir zumda paydo bo'lib yordam so'rar

emishda, yordam berganlarni hoxlagan orzusini amalga oshishiga ko‘maklar ekan va bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘larkan)

Hizr bobo – Bolajonlarim yaxshimisizlar?

Abdusalom – Assalomu alaykum bobojon xo‘sh bizga qanday xizmat bor!

Hizr bobo – Va alaykum assalom! Meni mana bu yo‘lning narigi tomoniga o‘tkazib qo‘yinglar.

Ahmad – E, endi munkillagan chol bilan yetaklashib yurishim qoluvdi. Otaxon yo‘ldan o‘tishni bilmaymiz.

Abdusalom – Nega yolg‘on gapirasan do‘stim. Axir tarbiyachi opamiz o‘rgatgan-ku, katta yo‘lni kesib o‘tayotganda avval chap tamonga, so‘ngra yo‘lni o‘rtasiga borgach esa o‘ng tamonga qaranglar deb. Qolaversa, qariyalarga yordam berish bizning burchimiz-ku.

Ali qo‘g‘irchoqboz – Abdusalom boboni yetaklab yo‘lning u tomoniga o‘tib olishiga yordam beribdi.

Hizr bobo – Rahmat o‘g‘lim! Senga tarbiyalayotgan ota-onangga, tarbiyachi opalaringga ming rahmat. Bu dunyoda birovga yaxshilik qilsang, qo‘ldan kelgancha yordam qilsang albatta yaxshilik javobsiz qolmaydi. Xo‘sh, qani menga aytchi o‘g‘lim qanday orzuying nima?!

Abdusalom – Bobojon, men tezroq bilim olishni istayman. Ko‘proq o‘qib, o‘rganib vatanimga, ota-onamga yordam bermoqchiman.

Hizr bobo – Bolajonim, albatta niyatinga yetasan. Mana bu “Alifbe” kitobi. Sen ko‘proq bilim olishga harakat qil, bekorga aytishmagan “o‘qib o‘rgangan olim, orlanib o‘qimagan, o‘ziga zolim” deb.

(Hizr bobo ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi)

Ahmad – Voy namuncha chiroyli kitobcha ekan-a? Rasmlarini-chi. Menga ham o‘qishga berib turasanmi- a?

Abdusalom – Bo‘lmasamchi. Axir o‘z do‘stiga yordam bermay bo‘ladimi? Endi birga maktabga boramiz, bundan buyon doimo birga bo‘lamiz.

Ahmad – Do‘stim, endi ko‘zim ochildi, sen haqiqiy do‘st ekansan. Meni kechira olasanmi?

Abdusalom – Do‘stim sen kechirimni mendan emas (Ali qo‘g‘irchoqbozni ko‘rsatib), o‘zingdan kattalardan so‘ragin.

Ahmad – Amaki, qo‘polligim uchun siz ham meni kechiring?

Ali qo‘g‘irchoqboz – Juda yaxshi, endi mana bu do‘stlaringdan kechirim so‘ra.

Ahmad – (Bolajonlarga) hammangiz mening do‘stlarimsiz, endi xech qachon maqtanchog‘lik, dangasalik qilmayman, sizlar ham meni kechira qolinglar?

Ali qo‘g‘irchoqboz – Xo‘sh bolajonlar Ahmadjonni kechiramizmi? Juda yaxshi! Ana ko‘rdinglarmi maqtanchog‘lik, dangasalik qilsangiz va yolg‘on gapirsangiz oxir-oqibat do‘stlaringiz oldida uyatga qolasiz. Qolaversa, do‘stlaringizni xech qachon xafa qilmanglar, ularni ehtiyot qilinglar, bekorga shoirlarimiz aytishmagan:

Do‘st bilan obod uying,

Gar bo‘lsa u vayrona ham.

Do‘st qadam qo‘ymas ekan,

Vayronadir koshona ham!

Shuning bilan ertagim bo‘ldi tamom, Ko‘rishguncha bo‘ling sog‘-omon! (Ali qo‘g‘irchoqboz xurjunlarini yig‘ishtirib, doirasini chalib chiqib ketadi).

“ Ishonmagin-do‘stinga, somon tiqar po‘stinga!” yoki “Tulkivoy va Laylakvoy hangomasi” (Ertak tomosha)

Qatnashuvchilar: ertakchi (tarbiyachi), tulki, laylak.

Ertak tomoshaning boshlanishi. Sahnaga ertakchi chiqib keladi.

Ertakchi – Assalomu alaykum, aziz bolajonlar”! Sizlar bilan yana diydor ko‘rishganimizdan bag‘oyat minnatdorman. Xo‘sh, avvalgi ertagim sizlarga yoqdimi, juda yaxshi men bugun yana ham qiziqarli ertak aytib bermoqchiman. Bu ertagim bilmagan, tanimagan odamlarning gapiga kirishlik oxir-oqibat qanday balolarga giriftor bo‘lishlik haqida. Bolajonlar, xalqimizda doim yolg‘on gapirib, birovlarini laqillatib yuruvchilarni ayyor tulkiga qiyoslashadi, to‘g‘rimi? Bir katta chakalakzorda ayyor tulki yasharkan. U birga yashaydigan hayvonlarni laqillatib ustidan kulib yurarkan. Chakalakzordagi barcha hayvonlar bora-bora tulkixonning gapiga ishonmay, hattoki, uni yakkalashib ham qo‘yishibdi. Tulki har kuni o‘zi yurib zerika boshlabdi va to‘qayzorga borib u yerdagi hayvonlarni ham bir

laqillatib qo‘raychi deb yo‘lga otlanibdi. Tulki to‘qayzorda birinchi bo‘lib laylakvoyni uchratibdi.

Tulki – Bugun men tug‘ilgan kunimni nishonlamoqchiman, shunga seni ziyofatga taklif qilib keldim.

Ertakchi - Laylakvoy tulkining gapiga laqqa ishonib, kechga yaqin uning uyiga ziyofatga kelibdi.

Tulki – Qani laylakvoy, sen mening eng aziz mehmonimsan, biz tulkilarning mazali taomidan olchi, marhamat!

Ertakchi – Laylakvoy yog‘li kulchadan juda yegisi kelibdi va tumshug‘ini taxtaga uribdi, shuncha urinsa ham xech narsa yeya olmabdi.

Laylak – Kechirasan tulkixon! Mening qornim juda to‘q edi, o‘zing bemalol olaver.

Ertakchi – Ayyor tulki astagina jilmayibdi-yu, yog‘li kulchalarni o‘zi bir zumda yeb qo‘yibdi. Qorni och, izza bo‘lgan laylakvoy ichida seni ham bir boplasammi deb niyat qilib qo‘yibdi.

Laylakvoy – Endi ziyofat navbati menga, ertaga mehmonga borsang rosa xursand bo‘lardim.

Tulki – Xo‘p bo‘ladi, bajoni dil boraman.

Ertakchi – Ertasi kuni tulkixon butun to‘qayzorga laylakvoyni qanday qilib laqillatganini ovoza qilib chiqibdi va kechga tomon laylakvoynikiga ravona bo‘libdi.

Laylakvoy ham tulkixonni yaxshilab kutib olibdi va pishirgan suyuq oshini ko‘zachaga quyib tulkining oldiga qo‘yibdi.

Laylak – Qani tulkixon, suyuq taomdan ol!

Ertakchi – Tulkixon ko‘zachadan icha olmasligini bilibdi, ammo sir boy bermabdi.

Tulki – Bemalol laylakvoy, o‘zlaridan bo‘lsin, men bu yerga kelishimdan oldin yaxshilab ovqatlanib olgan edim!

Ertakchi – Tulki shunday debdi-yu, agarda laylakvoy bugungi voqeani boshqalarga e‘lon qilsa sharmanda bo‘lishini bilib, undan o‘ch olmoqchi bo‘libdi va qanday qilib uning tazirini bersam ekan deb o‘ylab qolibdi. Nihoyat qabih reja tuzibdi.

Tulki – Do‘stim laylakvoy! Mana ancha yaqin, tanish do‘st bo‘lib qoldik. Malol kelmasa ertaga menikiga kelsang, ajoyib o‘yinni bilaman, birgalashib o‘ynardik.

Ertakchi – Tulkixonning yomon niyatidan bexabar laylakvoy ertasi kuni uning uyiga kelibdi.

Laylak – Mana men keldim, qani ajoyib o‘yiningni ko‘rsatchi!

Tulki – Marhamat do‘stim! Mening ustimga chiq. Sen ko‘rmagan joylarni ko‘rsataman. Faqat qanotingni yozib ikki uchini menga tishlatib qo‘ysang yiqilib tushmaysan.

Ertakchi – Tulkining gapiga laqqa ishongan laylakvoy uning ustiga chiqibdi va qanotini yoyib, ikki uchini unga tishlatib qo‘yibdi. Qanotlarni tishlab olgan Tulkixon chakalakzor ichida yugura boshlabdi. Laylakning patlari to‘kilib, qip-qizil go‘sht bo‘lib qolibdi. “Al-qasos-u minal haq!” hayolidan o‘tkazibdi laylak. Daryo-yu botqoqlikda qirq kecha-yu qirq kunduz qurbaqalar bilan o‘zini boqibdi va davolanibdi, yangi patlar ham paydo bo‘lib, uchadigan bo‘libdi. So‘ng qasdini olgani tulkining oldiga uchib kelibdi.

Laylak – Do‘stim omon-esson yuribsanmi? Sen topgan o‘yin juda ham qiziq ekan, men ham senga g‘aroyib o‘yin ko‘rsataman. Ertaga mening oldimga borgin.

Ertakchi – Ertasi kuni tulki laylakvoyni oldiga boribdi. Laylak esa tulkini ustiga mindirib olib osmoni falakka olib chiqibdi.

Laylak – Xo‘sh, do‘stim tulkixon, yer ko‘rinyaptimi?

Tulki – Ha ko‘rinyapti!

Ertakchi – Laylak tulkining javobini eshitib, yana ham balandroqqa ko‘tarilibdi va yana so‘rabdi.

Laylak – Endichi, yer ko‘rinyaptimi?

Tulki – Yo‘q endi yer ko‘rinmayapti!

Laylak – Hozir ko‘rinadi!

Ertakchi – Shunday qilib laylakvoy bir ag‘darilgan ekan, bexos o‘tirgan tulkixon yer tomon tusha boshlabdi. Yaxshiyamki tulkixonning baxti bor ekan, pichan g‘aramining ustiga tushibdi va qilgan ishlaridan pushaymon bo‘lib, endi hech qachon birovlarining ustidan kulmaslikka ahd qilibdi.

Ana ko‘rdingizmi bolajonlar! Bu dunyoda har bir narsaning o‘z hisob- kitobi bor.

Qolaversa, yaxshi bilmagan, tanimagan odamlarning gapiga hech qachon ishonmanglar! Sizlar bilan esa xayrlashib qolaman. Ko'rishguncha xayr! Ertak tomosha jarayonida bolalar faoliyatini boshqarayotgan tarbiyachi bolaning xatti-harakatlari munosib baholashi, o'zi shaxsan namuna ko'rsatishi, bolalarni yo'l qo'ygan xatolari uchun tanqid qilmasligi, aksincha, tomosha paytida xushyor bo'lishi kerakligini aytib o'tishi zarur. Shuningdek, tarbiyachi tomoshani qo'yish davomida bolalarga har qanday xatti-harakat ma'lum qoidalarga muvofiq o'ynalishini, ishtirokchilar ana shu qoidalarga qat'iy amal qilishlari kerakligini, rollarni ijro etishda mas'uliyatli yondashish talab etilishini tushuntirib borishi maqsadga muvofiqdir. Tajriba-sinov ishlari davrida mazkur shartlarga amal qilinishi ta'minlandi. Tajriba-sinov ishlari davrida yuqoridagi ta'limiy mashg'ulotlar va ertak tomoshalardan foydalanish natijasida bolalarda turli vaziyatlarda o'zini tutish, atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish hamda maqsadga erishishga intilish kabi sifatlarni shakllantirishga yordam berdi. Shu bilan birga ularda o'ziga bo'lgan ishonch ham yuzaga keldi. Tortinchoq, uyatchan bolalar esa jamoa a'zolari, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishdan tortinish o'z kechinmalari, intilishlaridan ularni xabardor qilish yo'lidagi to'siq ekanligi to'g'risidagi tushunchalar hosil qilindi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda ta'limiy mashg'ulotlar, qo'g'irchoq o'yin tomoshalari maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning ta'sirchan omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Ta'limiy mashg'ulotlar, qo'g'irchoq o'yin, ertak tomoshalarining tarbiyaviy imkoniyatlari mazkur yosh davri bolalarida jamoa bilan birga bo'lishga intilish, kattalar va bolalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, kattalarga hurmat, xushmuomalalik, jasurlik, "nima yaxshi-yu, nima yomon" ekanini anglab yetish, mehnatsevarlik kabi sifatlarni samarali shakllantirilish bilan bir qatorda ularda quydagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

har bir insonning insoniylik belgisi uning odobi va axloqi bilan o'lchanishi, odob barcha insonlarni yaxshi xulqli bo'lishga chaqirishi;

har bir xatti-harakatda to'g'rilik va so'zida rostgo'y bo'lish;

bir-birlarini har qanday vaziyatda qo‘llay olishlari;
oila, maktabgacha ta‘lim muassasasi, ko‘cha-ko‘yda ona tabiat qo‘ynidagi barcha yashil o‘simliklarga e‘tiborli bo‘lish, uni toptash, sindirish, payhon qilish kabi holatlarga bee‘tibor qaramaslik, ularni sevib parvarish qilish va ko‘paytirish;
milliy va umuminsoniy qadriyatlar sirasidagi qadimiy yodgorliklardagi nafislik, buyuklik, salobatlilikni xis etish, mehnat asosida yaratilgan go‘zallikdan zavqlanish xissini shakllantirish, ularni e‘zozlash tuyg‘usini vujudga keltirish;
ertaklar, rivoyatlar, hikoyalar, matal va maqollarning ma‘nosini anglab yetish, ulardagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ajrata olish, ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan o‘rnak olish, taqlid qilish, salbiy ishlarni o‘z faoliyatida takrorlamaslik.

3.3. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish texnologiyasi va qo‘g‘irchoq yasash usullari

Maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchilari faoliyatlarida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishda tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta‘limning hozirgi bosqichida tarbiyalanuvchilarni ijodiy mehnatga tayyorlash – kelajak avlodning ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan muhim vazifalardan biridir.

Tarbiyalanuvchilarni ijodiy mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi. Qo‘l mehnati jarayonida bolalar asosan tashlandiq (keraksiz, chiqindi) materiallardan, sun‘iy xom-ashyolar bilan ishlash ko‘nikmalari hosil qilinadi. Tarbiyalanuvchilarni qo‘g‘irchoq yasashga o‘rgatishda quyidagilar muhim o‘rin tutadi

yasalayotgan qo'g'irchoq turi va uning o'ziga xosligi haqida dastlab og'zaki tushuncha berish;

kerakli jihozlar, ulardan to'g'ri va ehtiyotkorona foydalanish haqida tarbiyachi eslatmasi;

asosiy ishni boshlash, har bir harakatlar ketma-ketligi oldidan tarbiyachining amalda ko'rsatmasi;

har bir tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatini kuzatish;

o'z vaqtida rag'batlantirib borish

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davomida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun turli qo'g'irchoqlar yasash texnologiyalari ishlab chiqilib, bevosita maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida qo'llanildi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya qilinishi qat'iy belgilab olindi

qo'g'irchoqning turi, nomi, shakli, hajmi va ishlatilishi to'g'risida dastlabki tushunchalarning berilishi;

bolaning bemalol harakat qilishi va yasashi uchun qulay shart-sharoit yaratilishi;

bolalarning o'yinchoq yasashlari uchun kerakli materiallarning hozir bo'lishi;

tarbiyachi har bir harakatni tushuntirgan holda yasab ko'rsatishi;

tayyor qo'g'irchoqlar namuna sifatida ko'rsatilishi;

qo'g'irchoq milliylikka yo'g'rilgan, an'analarni saqlab qolgan, o'zbekona turmush tarzini o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim;

qo'g'irchoq bolaga jarohat yetkazmaydigan, o'ynash uchun qulay, bola sog'lig'iga zararsiz, bejirim tayyorlanishi kerak;

qo'g'irchoq bolaning qiziqishlariga mos kelishi, har xil o'yinlarda foydalana oladigan, ijodkorlikka undaydigan bo'lishi lozim;

qo'g'irchoqning tashqi ko'rinishi samimiy, xushchaqchaq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

ish jarayonida estetik didga e'tibor qaratish;

bolalarning jismoniy rivojlanganligini e'tiborga olish;

bolada yasagan qo'g'irchoq'ga nisbatan muhabbat hissini uyg'otish, mehnatning natijasidan quvonish, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish;

o'rtoqlari bilan hamkorlik qilish, o'zaro yordamlashishni qaror toptirish;
yasalayotgan qo'g'irchoq bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo'lishi, uning tashqi qiyofasi tasviridan bola zavqlanishi lozim;

qo'g'irchoqqa berilgan ranglarning turli-tumanligi, kiyimining bejirimligi, yasallishining soddaligi bola ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba-sinov ishlari davrida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi – bolalar ijodiy mehnatidan unumli foydalanildi.

Ushbu jarayonda bolalar yapaloq (tekis) qo'g'irchoqlar, qo'lqopli qo'g'irchoqlar, qutili qo'g'irchoqlar, qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlarni yasashda faol ishtirok etdilar va bu borada tarbiyachi ko'rsatmalari asosida muayyan bilim, ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Shuningdek, tarbiyachilar uchun sim (trostoviye) bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlar, ip (marionetka) bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlar, aktyori ko'rinadigan (planshetniy) qo'g'irchoqlar, soyali (tenevoy) qo'g'irchoqlar, niqobli (maska-shou) qo'g'irchoqlarni yasash bo'yicha muayyan ko'rsatmalar berildi va ularning o'z faoliyatlarida foydalanishlari uchun imkoniyat yaratildi.

Ushbu qo'g'irchoqlarni yasallish texnologiyalari sinov ishlariga jalb qilingan tarbiyachilarga oldindan tayyor buklet shaklida tavsiya qilinganligi ish jarayonining samarali kechishini ta'minlabgina qolmay, belgilangan vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Quyida yuqorida qayd etilgan ikki yo'nalish ya'ni tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar ish jarayonida foydalanilgan qo'g'irchoqlarning yasallish texnologiyalari va ularning mohiyati to'g'risida so'z yuritiladi.



1. Yapaloq (tekis) qo'g'irchoqlar yasash.
Kerakli jihozlar: yupqa va qalin karton qog'ozlar, qalam, qaychi, yelim, rangli qog'ozlar (rangli qalam yoki rangli bo'yoqlar bo'lishi ham mumkin).

1-bosqich. Tasvir chizish.

Turli xil ko‘rinishdagi tasvirlar (hayvonlar, odamlar va hokazo)yupqa karton qog‘oziga chiziladi.

2-bosqich. Nusha ko‘chirish.

Chizilgan tasvir qaychida qiyib olinib, qalin karton qog‘oz ustiga qo‘yib, atroflari qalam bilan chizib olinadi. Xuddi shu harakat ikkinchi nusha uchun ham takrorlanadi. So‘ngra har ikkala nusha qaychi bilan qirqib olinadi.

3-bosqich. Yelimlash.

Tayyor qirqib olingan tasvirlar bir-biriga yelim orqali yopishtiriladi. Ushbu jarayonda ikkala nushaning bir-biriga tis va atroflari teng ustma-ust tushishiga e’tibor qaratish zarur.

4-bosqich. Pardoqlash.

Tayyorlangan qo‘g‘irchoqqa pardoq berish jarayonida rangli qalamlardan yoki rangli qog‘oz va turli bo‘yoqlardan foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda estetik did muhim o‘rin tutadi. Bezakni tanlash qo‘g‘irchoqning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqadi.

5-bosqich. O‘rnatish.

Yapaloq (tekis) qo‘g‘irchoq yasash jarayonida ushbu bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, bunday qo‘g‘irchoqlarga tik turgan holatda baho beriladi. O‘rnatishda qo‘g‘irchoqning pastki qismidagi qoq yopishgan yeridan qisman ochib, ostiga muvozanat saqlashi uchun muayyan o‘lchovda yanada qalinroq karton qog‘ozi yopishtirish mumkin. Yoki bo‘lmasa, plastilindan ham foydalanish mumkin.

2. Magnitli teatr. Maktabgacha ta’lim muassasalari sharoitida ushbu teatrni keng qo‘llash mumkin. Buning uchun xoh tayyor kichik qo‘g‘irchoqlar bo‘lsin, xoh bolalar tomonidan yasalgan qo‘lqopli, qog‘ozli, tekis (yapaloq), porolonli qo‘g‘irchoqlar bo‘lsin ularning ostiga magnet kesimi o‘rnatiladi. So‘ngra moslashtirilgan stol ustida metall (magnet tortadigan) o‘rnatiladi.

Ko'rinmaslik uchun ustiga mato tortiladi. Ushbu teatrda asosan qarama-qarshi 2-3 ta boлага mўljalланган бўлиши мақсадга мувофиқ. Қўғирчоқлар бир-бирига караб ҳаракатланиши, бир-биридан қочиши (қувлаши) мумкин. Магнит театри учун қўғирчоқлар ясалганда, албатта, уларнинг пишиқроқ, чидамлироқ бўлишига аҳамият бериш мақсадга мувофиқ.

3. Barmoq teatri. Bunda bolalar faqatgina tomoshabin emas, balki bevosita ana shu jarayonda o'zlari ham ishtirok etishlari mumkin. Teatr qahramonlarini qog'oz va paralondan ham yasash mumkin. Qog'ozdan odam va hayvonlarning kichik tasvirini barmoqlarga kiyib olinadigan tarzda yasash tavsiya etiladi. Qo'g'irchoqlar silindr, konus, quti shaklida tayyorlanishi mumkin. Bezash uchun turli gazlamalardan foydalanish mumkin. Gazlamaning sitilib ketmaydigan xili tanlanadi va teskari tomonidan tikilib, so'ng ag'darilib, kerakli joylari tikiladi. Barmoq teatrining boshqa teatlardan farqi shundaki, unda ertak qahramonlari bolalarning barmoqlariga mos kichik va ertak ko'rsatuvchining barmog'iga to'g'ri keladigan xolatda tayyorlanishidir.

4. Qo'lqopli qo'g'irchoqlar. Ushbu qo'g'irchoqlarni bolalar qo'lga kiyib ushlagan holda stol teatrlarida foydalanishlari mumkin (tarbiyachilar bolalarda yanada yaqqol tushuncha hosil qilishda teleekran orqali bolalar uchun namoyish etiladigan "oqshom ertaklari" dagi qo'g'irchoqlarning xatti-harakatlarini ko'z oldilariga keltirishlari mumkin). Qahramonlarni eski qo'lqoplardan tayyorlasa bo'ladi. Agar eski qo'lqop topilmasa uni tikish mumkin. Bolalar bunday qahramonlarni o'zlari yasay oladilar.

Kerakli jihozlar: tabiiy (uy) sharoitidagi tashlandiq (ishlatilmayotgan) qo'lqoplar, uzun paypoqlar, qaychi, nina, ip, paxta (paralon yoki material qirqimlari bo'lishi ham mumkin), bezash uchun tabiat materiallari, yelim (PVA). Tayyorlash jarayoni: qo'g'irchoqni tayyorlash jarayonida qo'lqopning qismlari (ma'lumki, qo'lqop beshta barmoqqa moslangan) ertak uchun tanlangan qahramonlarga qarab olib tashlanadi.

Ammo, olib tashlangan qismlari ham keraksiz emas, balki ulardan dum, qo‘l-oyoq qismi uchun foydalaniladi. Uzun paypoqlardan esa ilonni yasash mumkin.

1-ko‘rinish. Qo‘lqopning ikki chekka qismi qolib, o‘rtadagi uch qismi olib tashlanadi. Undan mushuk, it, bo‘ri, cho‘chqa kabi hayvonlarni yasash mumkin.

2-ko‘rinish. Qo‘lqopning ikki chekka va o‘rtasidagi qismlari olib tashlanadi. Qirqilgan joyi tikib qo‘yiladi. Undan quyonni yasash mumkin.

3-ko‘rinish. Qo‘lqopning faqat o‘rtadagi qismi qirqib tashlansa, undan echkini yasash mumkin.

Shuningdek, har bir har bir qirqib o‘rni tikilgan qo‘lqopning ichi paxta (paralon yoki material qirqimlari bo‘lishi ham mumkin) bilan to‘ldiriladi. Har bir hayvonning tashqi ko‘rinish xususiyatiga qarab bezak beriladi. Bundan tashqari bolalar qo‘g‘irchoqlarni qo‘llariga kiyib harakatlantirishlari uchun qo‘lqopga maxsus moslama tikishham mumkin.

4-ko‘rinish. Uzun paypoq ichi ham paxta (paralon yoki material qirqimlari bo‘lishi ham mumkin) bilan to‘ldiriladi. Ilonning tashqi ko‘rinish xususiyatiga qarab bezak beriladi. Ilonning bosh va bel qismiga sim o‘rnatib, uni o‘rnatish mumkin.

5. Qutili qo‘g‘irchoqlar. Qutili qo‘g‘irchoqlar ham oddiy sharoitda yasash mumkin bo‘lgan qo‘g‘irchoqlardir. Bu ayniqsa, bolalarning ijodiy faoliyati uchun juda qiziqarlidir.

Kerakli jihozlar: tabiiy (uy) sharoitidagi tashlandiq (ishlatilmayotgan), lekin butun qutilar (gugurt, choy va boshqa narsa-buyum qutilari), qaychi, bezash uchun rangli qog‘ozlar, yelim.

Tayyorlash jarayoni: masalan, xo‘rozni yasash uchun katta-kichik o‘lchamda uch xil quti olinadi. Dastlab katta quti, o‘rta va yana sal kattaroq qutilar birin-ketin joylashtiriladi. So‘ngra yupqa qog‘ozdan xo‘rozning toji, ikki yon boshiga qanotlari, ko‘zi, qoshi dum qismi, og‘zi yasalib, yopishtiriladi:

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil qilishda quyidagilarga ahamiyat berish zarur: birinchi navbatda ertak bilan tanishib chiqiladi. Ertakning voqea bo‘lgan joylari, sahna ko‘rinishlari eskiz qilinadi. Bu eskiz qo‘g‘irchoq teatri “tili”da dekoratsiya eskizi deyiladi.

Masalan: uy, daraxt, stol, stul va hokazo narsalar bunga misol bo'lishi mumkin. qahramonlar esa bitta-bitta o'rganilib, xarakterlari va ularga xos obrazlar yaratiladi.

5. Qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: qo'g'irchoqni kiyintirish uchun mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, kulollar ishlatadigan loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz va har xil rangli bo'yoqlar.
1-bosqich. Tasvir (eskiz) chizish.

Bunday qo'g'irchoqlarni yasash uchun eng avvalo, oddiy vatman qog'oz yoki rasm daftar varog'iga yasaladigan qo'g'irchoqlarning tasviri (eskizi) chiziladi. Qo'g'irchoqning ko'rinishi, uning xakteri va qanday kiyimda bo'lishi ana shu rangli tasvirda aks etgan bo'lishi kerak.

2-bosqich. Qolip (forma) tayyorlash.

Chizilgan tasvirga qarab loydan va plastilindan o'sha qo'g'irchoqning bosh qismi haykali yasaladi. Bosh qismi tayyor bo'lgach, ingichka po'lat sim olib qo'loq o'rnatiladigan joydan teng ikkiga bo'linadi va qattiq karton qog'oz olib unga yotqizib qo'yiladi. So'ngra qotishma yopishib qolmasligi uchun haykalchanning yuza qismini vazelin bilan yog'lab chiqiladi va albastr yoki gipsdan suyuqroq qotishma tayyorlanib yog'langan joyga qo'yiladi. Qotishma qotgandan so'ng uni qo'lga olib ichidagi loy yoki plastilinni o'yib chiqarib olinadi. Natijada qolip (forma) tayyor bo'ladi.

3-bosqich. Nusha ko'chirish.

Yasalgan qolipdan nusha ko'chirish uchun eng avvalo, oddiy suvga bo'ktirilgan qog'oz parchalari yopishtirib chiqiladi. Sababi nusha tayyor bo'lgach uni qolipdan chiqarib olish oson bo'ladi. Oddiy undan atala qilinib, to qo'yiqlashguncha qaynatiladi. Shu tariqa yelim (kleystr) tayyorlanadi. Tayyor yelimni qog'oz parchalariga surtib, uni qolip devorlariga yopishtirib chiqiladi. Yopishtirilgan qavatlar 6-8 qavatdan kam bo'lmasligi lozim. Qavat qanchalik ko'p bo'lsa qo'g'irchoq shunchalik pishiq bo'ladi. Yana ham pishiq

bo'lishi uchun har 3 qavat orasiga doka mato ham yopishtiriladi. Qavatlarni yopishtirayotganda shoshilmay yaxshilab yopishtirish zarur. Agarda oraliqqa havo kirib bo'shliq paydo bo'lsa, qo'g'irchoq sifatsiz chiqadi. Qavatlarni qolipga yopishtirib bo'lgach, uni quritish uchun issiq joyga qo'yiladi va qurib bo'lgach tayyor bo'lgan nushani sekin-astalik bilan qolipning ichidan chiqarib olinadi.

4-bosqich.

Yelimlash.

Ikki bo'lakdan iborat qo'g'irchoqning bosh qismi qaytarib yelimlanadi. Qo'g'irchoqning boshi harakatga kelishi uchun unga kichkina tayoqcha (gabit) ni ham qo'shib yelimlanadi. Ushbu jarayonda ikkala nushaning bir-biriga tekis va artoflari teng ustma-ust tushishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

5-bosqich. Pardoqlash.

Tayyorlangan qo'g'irchoqqa pardoq berish jarayonida har xil mato va rangli bo'yoqlardan foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda estetik did muhim o'rin tutadi. bezakni tanlash qo'g'irchoqning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqadi. Eng avvalo yelimlangan bosh qismini yaxshilab jilvir qog'oz bilan ishlov beriladi. So'ngra oq rangli bo'yoq beriladi.

6-bosqich. Bezash.

Pardoqdan chiqqan qo'g'irchoqni bezash uchun tasvirda ko'rsatilgandek kiyintirilib, qo'l-oyoqlar ulanib, kiprik, soch-soqol, dumlar, umaman, kerakli narsalar yopishtiriladi. Bo'qq'irchoq qo'lda kiyib o'ynatilgani bois ikki barmoq sig'adigan moslama (patron) qo'g'irchoqning panjasiga qo'shib tikiladi. Qo'g'irchoq harakatlanishi uchun tayyor holatga keltiriladi.

7. Sim (trostoviye) bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: po'lat sim, qo'g'irchoqni kiyintirish uchun har xil mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, kulollar ishlatadigan loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz, har xil rangli bo'yoqlar,

yog'och parchalari, yog'och ustasining asbob-anjomlari. 1-5 gacha bo'lgan bosqichlar qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar kabi bo'ladi.

6-bosqich. Bezash ishlari.

Pardozdan chiqqan qo'g'irchoqning bosh qismini endi tayoqcha (gabit)ga emas, balki, mexanizator usta tayyorlagan moslamaga qotiriladi. Bu moslamada qo'g'irchoqning qo'llarini qatirish yelka qismida bo'lai. YA'ni qo'g'irchoqning panjalari simga o'rnatilgan moslamaga, moslama esa qo'g'irchoqning yelkasiga mahkamlanadi.

Agarda zaruriyat tug'ilsa qo'g'irchoqning oyoqlariga ham sim o'rnatish mumkin. Sim bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarning boshqa qo'g'irchoqlardan farqi – uning oyoq va qo'llari sim bilan boshqariladi.

8. Ip (marionetka) bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: kosiblar ishlatadigan qora rangli ip, qo'g'irchoqni kiyintirish uchun har xil mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz, har xil rangli bo'yoqlar, yog'och parchalari, yog'och ustasining asbob-anjomlari. 1-5 gacha bo'lgan bosqichlar qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar kabi bo'ladi.

6-bosqich. Bezash ishlari.

Pardozdan chiqqan qo'g'irchoqning bosh qismini mexanizator tayyorlagan qo'g'irchoqning gavda qismiga qatiriladi. Qo'g'irchoqning qo'l-oyog'i, gavdasi va bosh qismidan ip tortib qo'g'irchoqni boshqarish uchun tayyorlangan moslamaga qotiriladi. Ip bilan boshqariladigan qo'g'irchoqning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning harakatlari boshqa qo'g'irchoqlar harakatiga nisbatan hayotiyroq yoki qiziqarliroq bo'ladi. Bu esa tomoshabinni o'ziga yanada jalb qiladi.

9. Aktyori ko'rinadigan (planshetniy) qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: qo'g'irchoqni kiyintirish uchun har xil mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz, har xil rangli bo'yoqlar, yog'och parchalari, yog'och

ustasi ishlatadigan asbob-anjomlari. 1-5 gacha bo'lgan bosqichlar qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar kabi bo'ladi.

6-bosqich. Bezash ishlari.

Pardozdan chiqqan qo'g'irchoqning bosh qismini mexanizator yoki butaforlar tayyorlagan qo'g'irchoqning gavda qismiga qatiriladi. So'ngra ikki dona yog'och parchasi (gabit) ni olib qo'g'irchoq gavdasining orqa qismi va gavdasining orqa qismiga qatiriladi. Eskizda ko'rsatilgandek yuz qismi bezaladi, har xil mato (gazlama)lardan esa libos tikiladi. Stol qo'g'irchoqlari asosan stol ustida o'ynatiladi. Qo'g'irchoqbozlar ba'zan bunday tomoshalarni ochiq shirmali tomosha (spektaklz) deb ham ataydilar.

10. Soyali (tenevoy) qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: ekran yasash uchun oq mato, harxil o'lchamli yog'ochlar, qaychi, jilvir qog'oz, qattiq karton yoki ishlatish uchun tayyorlangan hayvon terisi (fanera ham bo'lishi mumkin), yog'och ustasi ishlatadigan asbob-anjomlar, har xil o'lchamli mix, ekranni yoritish uchun elektr jihozlari.

1-bosqich. Ekran tayyorlash.

Soyali tomosha ko'rsatish uchun eng avvalo, ekran tayyorlash kerak. Buning uchun yog'ochdan to'rt burchak shakl yasab, unga oq rangli mato tortiladi. Yoritish uchun esa ekran chetlariga yoritgichlar o'rnatiladi.

2-bosqich. Tasvir (eskiz) chizish.

Tomoshada kerakli qo'g'irchoqlar va dekoratsiyalar tasvirini oddif vatman qog'oz yoki rasm daftariga rangli holatda chiziladi.

3-bosqich. Nusha ko'chirish.

Qadimda qo'g'irchoqbozlar soyali tomosha qo'g'irchoqlarini yasashda har xil hayvon terilaridan foydalanishgan. Zamonaviy qo'g'irchoqbozlar fanera yoki qattiq kartonlardan foydalanishmoqda. Tasvir (eskiz)da chizilgan qo'g'irchoqning o'lchamiga qarab qattiq karton yoki faneraga nushasi ko'chiriladi.

4-bosqich. Yelimlash.

Karton yoki faneraga ko'chirilgan nushaga jilvir qog'oz bilan ishlov beriladi. Qo'g'irchoqni boshqarish uchun tayyorlangan dastakni unga yaxshilab qatiriladi. So'ngra oq mato olib qo'g'irchoq yelimlanadi.

5-bosqich. Pardoqlash.

Tayyor bo'lgan qo'g'irchoq va dekoratsiyaga so'ngra bezak ishlari beriladi. Unda har xil rangli bo'yoqlardan foydalaniladi. Bo'yoqlar qurishi uchun issiq joyga joylashtiriladi. Qurigan qo'g'irchoqlar bemalol tomosha uchun foydalanilishi mumkin.

11. Niqobli (maska-shou) qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: aktyorlar kiyadigan kostyumlar uchun har xil matolar, doka mato, har xil qog'ozlar, o'niqoblarni bezash uchun qayish va har xil o'lchamli to'quv iplari, qaychi, tasvir chizish uchun vatman qog'oz, har xil rangdagi bo'yoqlar, har xil o'lchamli rezinalar, kostyumlar uchun tugmalar, oyoq poyafzali uchun mix va yelim, yumshoq materiallar (paralon), loy yoki plastilin, vazelin yog'i, albastr.

1-bosqich. Tasvir chizish.

Kerakli niqob va kostyumlarning tasviri (eskizi) chiziladi.

2-bosqich. Nusha ko'chirish.

Tasvirda chizilgan niqobning shaklini loydan yasab olinadi va qattiq fanera yoki karton qog'ozga qo'yib ust tomoni yog'lanadi, so'ngra ustidan alebasterdan tayyorlangan qorishma quyiladi. Qorishma qatib bo'lgach, uni ichidan loyni chiqarib tashlanadi va natijada qolib tayyor bo'ladi. Qolip (forma) dan nusha ko'chirish uchun eng avvalo, qog'ozni suvga bo'ktirib qolipga yopishtirib chiqiladi. Sababi agar birinchi qavatni yelimlab yopishtirsak qolipga yopishib qoladi. Qavatlarining soni 8-9 qavatdan kam bo'lmasligi zarur. Niqob pishiqroq bo'lishi uchun har uch qavatdan so'ng doka mato yopishtiriladi va quritish uchun issiq joyga qo'yiladi.

3-bosqich. Bezash ishlari.

Niqobga eng avvalo jilvir qog'oz bilan ig'shlov beriladi va tayyor bo'lgach oq rangli bo'yoq bilan bo'yab chiqiladi. Bo'yoq qurigach niqobga kerakli bezaklarni yopishtirib, kerakli bo'yoq bilan chizib chiqiladi. Aktyorlarning kiyadigan kostyumlari ham tayyorlanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, tarbiyachilar tomonidan mashg'ulotlar jarayonida qo'g'irchoq yasashning samarali usullari va ilg'or ish tajribalarning qo'llanilishi muhimdir. Shu bilan bir qatorda bolaning har bir ijodiy mehnati nafaqat tarbiyachi tomonidan, balki, ota-onalar va oila kattalari tomonidan rag'batlantirilib borilishi maqsadga muvofiq. Qolaversa, ota-onalar tomonidan bola yoshiga mos va estetik jihatdan bola ruhiyatiga ta'sir etadigan qo'g'irchoqlarning xarid qilinishi ko'zlangan natijani beradi.

Tajriba-sinov ishlari davomida maktabgacha ta'lim muassasasining hozirgi bosqichida bolalarni ijodiy mehnatga tayyorlash o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biri ekanligi o'z isbotini topdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qo'g'irchoqlar yasash jarayonida quyidagilarga amal qilish lozimligiga e'tibor qaratildi:

- ishlatilayotgan jihozlarga, kerakli materiallarga tejamkorona munosabatda bo'lish;
- harakatlarni tarbiyachi rahbarligida bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- tarbiyachi ko'rsatmasiga rioya qilish;
- tarbiyachining turli xil vaziyatlarda bolalarga yordam berishi;
- ish joyini ozoda saqlash va hokazo

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim joizki, mustaqillik yillari o'zbek qo'g'irchoq teatri taraqqiyotda muhim davr bo'ldi. Qo'g'irchoq teatri boshqa turdagi san'atlar orasida o'z o'rnini egallay boshladi. Qo'g'irchoq tamoshalarida madaniy-ma'rifiy masalalar keskin muammo sifatida qo'yildi. Unda nafaqat bolalar, balki kattalar hayotiga aloqador muammolar kun tartibiga olib chiqildi.

O'zbekistonda professional teatrlarining vujudga kelishida jadidchilik harakatining asoschilaridan Behbudiy, Fitrat, Avloniy kabilarning nomlarini tilga olishimiz g'oyat o'rinlidir. Ular o'zbek adabiyotida drama janrini vujudga kelishiga katta xissa qo'shdilar.

O'zbek teatri milliy ma'naviyat targ'ibotchisi, yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasida teatr yetakchi vosita ekanligini tobora keng omma tushunib, anglab yetmoqdalar. Ayniqsa, mustaqillik yillari o'zbek san'atining, xususan, teatr san'atining milliylik va umuminsoniy xususiyatlari yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda.

Barcha teatr to'garaklarida samarali siljishlar ko'zga tashlanayotganidek, bizning ta'lim yo'nalishimiz qo'g'irchoq teatrida ham milliy o'zligimiz, xalqimiz o'tmishiga chuqurroq nazar solishga e'tibor kuchaydi. Milliy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan "Zumrad va Qimmat", oilada bolalar tarbiyasi, o'z ona Vatanini, o'z uyini asrashni, yolg'on gapirmaslik, o'zaro hurmat, ziyraklik kabi fazilatlarni shakllantiruvchi "Ona echki va bolalari", "Sholg'om", "Bo'g'irsoq" kabi ertaklar murg'ak bola ongi va qalbiga sahna ortidan singdirilib borilayotganligi har qancha tahsinga loyiq. Yuqorida nomlari keltirilgan bu ertaklarni sahnada talqin etish orqali bola ko'proq axborot olishga erishadi, yaratilgan obraz uning qalbiga chuqurroq kirib boradi. Eng asosiysi bolalarda o'z halqiga muhabbat, vatanparvarlik, yurtning ertasi uchun qayg'urish tuyg'ulari yuzaga keladi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishda bolalar ijodiy mehnatini tashkil etish, qo'g'irchoq o'yinlarida bolalarning rol ijro etishlarini ta'minlash bu sohada kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Qo'g'irchoq teatrida bevosita o'zi ishtirok etishi natijasida ancha mustahkam odatlar hosil bo'ladi. U tengqurlari bilan muloqotda bo'lishga intilishga, birgalikdagi faoliyatga ehtiyoj sezadi hamda xatti-harakatning ko'pgina qoidalarini o'zlashtiradi. Tarbiyachi kelajak poydevori bo'lgan yosh avlodning axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish, ularni har tomonlama ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashdek muhim va mas'uliyatli vazifani bajarar ekan, avvalo uning o'zi tarbiyalangan bo'lishi, yuksak odob-axloqqa ega bo'lishi, bolalarni tarbiyalash sifati uchun jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur anglashi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga o'zbek xalq madaniy merosi – xalq og'zaki ijodi, hikoya va ertaklardagi bosh asosiy g'oyani singdirish, ularning qo'g'irchoq teatriga, san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va shu orqali ularda Vatanga muhabbat, o'tmish tariximizga hurmat, xalqqa sadoqat, do'stga vafo, ota-onaga g'amxo'rlik tuyg'ularini singdirish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitida ma'lum yo'nalishlarda qo'g'irchoq teatrlarining keng yo'lga qo'yilishi, qo'g'irchoq o'yinlardan mashg'ulotlar jarayonida samarali foydalanish, bu borada mavjud qo'g'irchoq teatrlari bilan hamkorlik o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, ularning milliy kadriyatlar, an'analarimiz haqida yanada teran mushohada yuritishlari maqsadida turli ertaklar, hikoyalar o'qib berish, asar qahramonlari orqali ularda insoniy fazilatlarni shakllantirish samarali natija beradi. Har bir teatr oldi suhbatlarda uning tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyatini bolalarga chuqur anglatishi, uning natijalariga jiddiy etibor berish kutilgan samarani berishi mumkin.

Tavsiyalar

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda ishchanlik muhiti va shart-sharoit bo'lishi lozimligi aniqlanib. quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1) maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq tomoshalarining yo'lga qo'yilishi va unga bolalarni qiziqтира olish;
- 2) axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda teatr tomoshalarining g'oyaviy mazmuni bolaning yosh xususiyatlariga mos kelishini inobatga olish maqsadga muvofiq;
- 3) ota-onalar tomonidan bola yoshiga mos va estetik jihatdan bola ruhiyatiga ta'sir etadigan qo'g'irchoqlarning tanlanishi;
- 4) maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrining ish uslublari va ilg'or tajribalardan samarali foydalanish;
- 5) Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda teatr tomoshalarining g'oyaviy mazmuni bolaning yosh xususiyatlariga mos kelishini inobatga olish maqsadga muvofiq;
- 6) Har bir teatr oldi suhbatlarda uning tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyatini bolalarga chuqur anglatishi, uning natijalariga jiddiy etibor berish kutilgan samarani beradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasi psixologlari ham o'z faoliyatlarida "Qo'g'irchoq terapiya" usulini keng qo'llaydi va korreksion mashg'ulotlarda:

vaziyatlarni modellashtirish;

emotsional mashqlar;

taranglikni yechish maqsadlarida bolalar ruhiyatini, yosh krizislarini hisobga olgan holda olib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
- 2.Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: "O'zbekiston", 1999.
- 4.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 5.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
- 6.SH. M.Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T: "O'zbekiston" 2017"
- 7.SH. M.Mirziyoyev. "Yerkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T: "O'zbekiston" 2017.
- 8.Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan DAVLAT TALABLARI - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami-2017

9. "Bolajon" tayanch dasturi (takomillashtirilgan). – T.: 2016.
10. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. – T.: 2008.
11. "Maktabgacha ta'limmuassasasi to'g'risida"gi Nizom // Maktabgacha ta'lim. 2017.
12. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma'naviyat", 2013,
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
14. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent – 2016.
15. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova .maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O'zPFITI nashriyoti – 2015 yil
16. Xasanboyev J., X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Xasanboyeva, N.Usmanov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya", 2009. 672 bet.
17. Shodmonova Sh., "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent: - 2003.
18. Sharipova D. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz" va boshqalar (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) Metodik qo'llanma. T. : 2006.
19. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi.
20. Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. – T.: 2008.
21. Fayziyeva U. "Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi". T.: 2006
22. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
23. Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
24. Azizova. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qO'G'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Toshkent – 2010
25. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-Standart", 2012. – 100 b.

26. Turg'unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta'limi. –Toshkent, 2012. – №1. – B. 133-134
27. Rustamova M., D.Djumanova “Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda metodik birlashmalarning o‘rni” \ \ metodik tavsiyanoma, 2008 yil.
28. Nazarova F. “Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmat va meyoriy hujjatlar”, 2007 yil.
29. Nizomova K. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish” \ \ metodik qo‘llanma. Toshkent 2006
30. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent – 2008.
31. Mahkamjonov K.M., M.Sh.Rasuleva va bosh. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi”, “Ilm Ziyo” nash. T.: 2006
32. Mirdjalilova S., R.To‘laganova “Ta’limda innovatsiya”, “Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar” metodik tavsiyanoma, 2008 yil
33. Qodirova F.R., M.Fayzullayeva, M. Rustamova. “Tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun nutq o‘stirish mashg‘uloti ishlanmalari” (metodik qo‘llanma) T.: 2010.

Internet saytlari:

www.tdpu.uz.

www.pedagog.uz

www.ziyonet.uz

www.yedu.uz